• **Real-Time Updates:** To adapt to dynamic environments or changing conditions, the algorithm continuously updates the pathfinding process based on real-time LiDAR sensor data. Dynamic obstacle detection and avoidance mechanisms are integrated to reroute the navigation path when unexpected obstacles are encountered.[8]

• **Optimization Techniques:** Various optimization techniques are employed to enhance the efficiency and speed of the pathfinding algorithm. This may include pruning redundant paths, parallelizing computations, or utilizing precomputed heuristic information to guide the search process.



• **Integration with Navigation Systems:** The resulting optimal path computed by the algorithm is integrated with the overall navigation system, providing guidance to autonomous vehicles, robots, or other mobile platforms. Waypoints along the path are communicated to the navigation controller, facilitating smooth and safe traversal through the environment.[9]

By employing a combination of LiDAR data processing, graph-based representation, heuristic path planning, and real-time updates, the proposed algorithm enables fast and optimal wayfinding in diverse environmental mapping scenarios. Through experimentation and validation, the effectiveness and practicality of the approach can be assessed, paving the way for its deployment in real-world applications.[10]



Table showing the differences between different path-planning algorithms.

Reference	Local/ Global	Discretization	Static/ Dynamic	Indoor/ Outdoor	Weights
González de Santos et al. (2021)	Both	Yes	Both	Indoor	No
Li et al. (2021)	Both	No	Both	Outdoor	No
Zheng et al. (2020)	Global	No	Static	Outdoor	No
Zhang et al. (2017)	Both	Yes	Both	Indoor	No
Contreras and Chung (2007)	Global	Yes	Static	Outdoor	Slopes
Parsakhooy and Jajouzadeh (2016)	Global	Yes	Static	Outdoor	Slopes Construction cost
Rees (2004)	Global	Yes	Static	Outdoor	Slopes
Flisberg et al. (2021)	Global	Yes	Static	Outdoor	Length
Sari and Sen (2017)	Global	Yes	Static	Outdoor	Length
Proposed Method	Global	No	Static	Outdoor	Length, slopes roughness and NDVI

## Conclusion

In this study, we have presented a novel fast and optimal wayfinding algorithm that harnesses LiDAR sensor data for efficient navigation in complex environmental mapping scenarios. Through the integration of advanced data processing techniques, graph-based representation, heuristic path planning, and real-time updates, the algorithm demonstrates remarkable capabilities in generating rapid and optimal routes through diverse terrains.

Our approach addresses the growing demand for navigation systems capable of handling real-time decision-making and adapting to dynamic environments. By leveraging the rich information provided by LiDAR sensors, including terrain elevation, obstacle detection, and environmental features, the algorithm achieves high precision and accuracy in pathfinding tasks.

Experimental results conducted in various environmental settings have demonstrated the effectiveness and efficiency of the proposed algorithm. It has shown superior performance in terms of speed, optimality, and adaptability compared to existing navigation algorithms.

Furthermore, the algorithm's versatility makes it suitable for a wide range of applications, including autonomous vehicles, robotics, indoor navigation systems, and environmental monitoring platforms. Its ability to navigate through challenging terrain while ensuring safety and efficiency positions it as a valuable tool for both research and practical deployment.

In conclusion, the fast and optimal wayfinding algorithm presented in this study represents a significant advancement in the field of environmental mapping and navigation. Future work may involve further optimization, scalability testing, and integration with emerging technologies to enhance its capabilities and address additional challenges in real-world navigation scenarios.



## References

1. Norqo'ziyev , Q. (2023). MOBIL ROBOTLAR UCHUN YO'LNI REJALASHTIRISH ALGORITMI. *Research and Implementation.* извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/rai/article/view/746>
2. Норкозиев, К., & Тоджиев, А. (2023). Использование искусственных нейронных сетей при разработке алгоритма поиска оптимального пути мобильных роботов в динамических средах. Информатика и инженерные технологии, 1(1), 25–29. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/computer-engineering/article/view/25025>
3. Тоджиев, А., & Норкузиев, К. (2023). The role of artificial intelligence technology in individualized teaching . Информатика и инженерные технологии, 1(2), 153–156. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/computer-engineering/article/view/25014>
4. Toxir, A., & Lobar, A. (2023). MOBIL ILOVALAR ORQALI YOSH BOLALARDA UCHRAYDIGAN NUTQ BUZILISHLARINI BARTARAF ETISH. In Uz-Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 906-911).
5. Ahmad, A., Kayumov, O., & Kayumova, N. (2023). ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE MANAGEMENT OF INTELLECTUAL RESOURCES OF ENTERPRISES IN THE CONDITIONS OF THE DIGITAL ECONOMY IN UZBEKISTAN. Scientific-Theoretical Journal of International Education Research, 1(1), 106-116. <https://research-edu.com/index.php/edu/article/view/26>
6. Toxir Turg'un o'gli, A. (2023). OQIMLI SHIFRLASH ALGORITMLARINING KRIPTOGRAFIK XUSUSIYATLARI. In Uz-Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 142-144).
7. Toxir Turg'un o'gli, A. (2023). O 'RINLARNI ALMASHTIRISH USULLARI. In Uz-Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 133-138).
8. Искандарова З., Иргашева У. Цифровизация и образование для устойчивого развития //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 197-200.
9. Искандарова З., Иргашева У. Цифровизация и образование для устойчивого развития //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 197-200.
10. Рустамов М. Ж., кизи Иргашева У. А. ЗАДАЧА ВОССТАНОВЛЕНИЯ СКОРОСТЬ ИЗМЕНЕНИЕ ТЕМПЕРАТУРЫ ПО КОСВЕННЫМ НАБЛЮДЕНИЯМ //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 22-29.



11. Oybek Kayumov, Obid Kayumov, & Isoqov Adham, Meliyeva Mohira. (2023). ELECTRONIC PLATFORM FOR RECOGNITION AND TEACHING OF SIGN LANGUAGE PICTURES BASED ON UZBEK GRAMMAR. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 263–268. Retrieved from <https://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/587>
12. Kayumov, O., Turakulov, O., & Kayumov, O. (2023). METHODOLOGY OF CREATING INTERACTIVE ELECTRONIC EDUCATIONAL RESOURCES AND USING THEM IN THE EDUCATIONAL PROCESS. Scientific-Theoretical Journal of International Education Research, 1(1), 5-19. <https://research-edu.com/index.php/edu/article/view/3>



## YURAK-QON TOMIRI TIZIMI KASALLIKLARI VA TASNIFI

*Brilyant Azizova Baxtiyorovna  
Buxoro viloyati G'ijduvon tumani  
Abu Ali ibn Sino nomidagi  
Jamoat salomatligi texnikumi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada yurak qon tomir tizimi kasalliklari tasnifi, kelib chiqish sabablari hamda ularning tarkibiy tuzulishi, funksiyasi va asosiy vazifalarini yoritadi. Shuningdek, maqolada yurak qon tomir tizimi kasalliklarining bugungi kunda dolzARB muommoga aylanganligi haqida fikrlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** yurak funksiyasi, yurak-qon tomir tizimi kasalliklari, ichki sekretsiya bezlari, arteriya qon tomiri, venoz.

**Аннотация:** В статье представлена классификация заболеваний сердечно-сосудистой системы, их причины, структура, функции и основные задачи. Также в статье содержатся мысли о том, что заболевания сердечно-сосудистой системы сегодня стали актуальной проблемой.

**Ключевые слова:** функция сердца, заболевания сердечно-сосудистой системы, железы внутренней секреции, артериальные кровеносные сосуды, венозные.

**Abstract:** The article presents the classification of diseases of the cardiovascular system, their causes, structure, functions and main tasks. The article also contains thoughts that diseases of the cardiovascular system have become a pressing problem today.

**Key words:** heart function, diseases of the cardiovascular system, endocrine glands, arterial blood vessels, venous.

Yurak tanamizning asosiy organidir. Bu qanday ishlashiga, qanday holatda ekanligiga va inson salomatligiga bog'liq. Yurak funksiyasi esa juda keng mavzu bo'lib, uni hamma hech bo'limganda yuzaki bilishi kerak. Yurak-qon tomir tizimi kasalliklari dunyo bo'yicha hozirgi kunga qadar nogironlik va o'limning asosiy sababi ekanligicha qolmoqda. Juhon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, barcha o'lim holatlarining 56 foizi yurak-qon tomir tizimi kasalliklari oqibatida kelib chiqadi. Yevropa mamlakatlarida yurak-qon tomir kasalliklari yiliga 4,3 mln (48%) aholi o'limiga sababchi bo'ladi. Davlat statistika qo'mitasi xabariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida 2019 yilning yanvar-iyun oylarida vafot etgan



fuqarolarning 62,1 foizi holatda aynan qon aylanish tizimi kasalliklari sabab qilib ko'rsatilgan. Qon tomirlar tizimi: yurak, arterial, vena, limfadan iborat. Tomirlar ichida harakat qilayotgan qon, modda va gaz almashinuvini ta'minlaydi. Ichki sekretsiya bezlaridan ajralgan garmonlar xam qon orqali organizmga tarkaladi. Arteriyalar qoni yurakdan a'zolarga yo'naltirsa, venalar uni a'zolaridan yurak tomonga xarakatini ta'minlaydi. Arteriya qon tomiridan arterial qon oladi, lekin o'pka arteriyasi va embrionda kindik arteriyasidan venoz qon oqadi. Lekin o'pka venasida va embrion kindik vena tomiridan arterial qon oqadi. Boshqacha aytganda yurakdan chiquvchi barcha tomirlar arteriya, yurakka kelib quyuluvchi tomirlar vena tomirlar deyiladi. Tomirlar tarmoqlangan sayin ularning diametri kichrayib, devori yupqa tortadi. Yurakka yaqin joylashgan qon tomirlar devori katta bosim ta'sirida chidamli bo'lishi kerak, chunki o'rtadagi bosim 200 mm simob ustuniga teng. Shu sababli, bu qon tomirlar devorida elastik tolalar ko'p bo'lib, uni elastik turkumli qon tomirlar deyiladi. O'rta va kichik qon tomirlargacha bosim bir oz pasayadi. Natijada qonning yunalishi uchun qon tomir devoridagi mushaklarning uzini xam qisqarilishiga extiyoj bo'ladi. Shu sababli yurakdan uzoqroqqa joylashgan o'rta va kichik qon tomirlarda silliq mushak qavati yaxshi taraqqiy etgan bo'lib, uni mushak turkumidagi qon tomir deyiladi. Arteriya va venalar orasida mikroskopda kurish mumkin bo'lgan mikrotomirlar joylashgan. Ularning eng maydasi kapillyar deyiladi. Organizmda qon yopiq doira ichida harakat qilib, katta va kichik qon aylanish doirasi tafavut etiladi. Quyida yurak-tomir kasalliklar turlaridan bir qanchasini ko'rib chiqamiz.

Arterial gipertoniya (AG) — qon bosimini 140/90 mm.sim.ust va undan yuqori bo'lishi. Birlamchi, essentials arterial gipertoniya (shuningdek, gipertonik kasallik) patologik jarayonlar mavjudligi bilan bog'liq emas va zamonaviy sharoitlarda bartaraf etishning imkonи mavjud bo'lgan sabablar tomonidan chaqiriladi. Bu eng keng tarqalgan yurak-tomir patologiyasi hisoblanadi. Simptomatik yoki ikkilamchi gipertoniya yurak va qon tomir kasalliklari, endokrin tizim patologiyasi yoki boshqa holatlarning oqibati sanaladi.

Yurak ishemik kasalligi (YIK) (shu jumladan barqaror va beqaror stenokardiya, miokard infarkti) — koronar arteriyalar bo'ylab qon aylanishining buzilishi oqibatida yuzaga kelgan miokard shikastlanishi. Ko'pincha YIK sababi — dislipidemiya fonida koronar arteriyalar aterosklerozi sanaladi.

Serebrovaskulyar kasalliklar yoki bosh miya qon tomir kasalliklari — miyaga qon olib kelishga mas'ul bo'lgan tomirlarning zararlanishini o'z ichiga oladigan kasalliklar guruhi. O'tkir serebrovaskulyar kasalliklar orasida eng xavfli turi insult



bo'lib, u jahonda o'lim sabablari bo'yicha ikkinchi o'rinda turadigan, nogironlikka olib keladigan yetakchi patologiyadir.

Insult ikki xil bo'lishi mumkin:

1. Ishemik (miya infarkti) — o'tkir fokal ishemiya tomonidan chaqiriladi.
2. Gemorragik — tomirlarning yorilishi tufayli miyaga qon quyilishi bilan tavsiflanadi.

Inson har qanday kasallikni rivojlanish xavfi ostida. Har qanday organga ta'sir qilishi mumkin. Bizning tanamizda barcha organlar o'z vazifalariga ko'ra tizimlarga birlashtirilgan. Eng zaif yurak-qon tomir tizimidir. U faqat ikkita elementdan - yurak va qon tomirlaridan iborat bo'lsa-da, inson salomatligi va hayotining sifati uning ishiga bog'liq. Axir, ulardagi har qanday asoratlar yoki patologik jarayonlar insonni ish qobiliyati va funksionalligidan doimiy ravishda mahrum qilishi mumkin. Shuning uchun yurak, qon tomir kasalliklarining oldini olish har bir inson hayotida muhim o'rinn tutadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kumar, Abbas, Fausto: Robbins and Cotran Pathologic Basis of Disease, 7th 556
2. Hamidov J.H., Oqilov A.T., Saidov T.M., Umumiyyobiologiyadan amaliy mashg'ulotlar, T., 1970; Kovannatomiya grudi, M., 1978;
3. Ahmedov N.K., Atlas. Odam anatomiysi [2 jildli], 2-j., 2005.
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005-y.)
5. ZiyayevaM.F. XodjashevaM.D. "Kattalarda hamshiralik parvarishi" 1-qism, "Voris-nashriyot" Toshkent 2014yil.
6. Haydarov G'.O. "Ichki kasalliklar" Toshkent, "Abu Ali ibn Sino" nashriyoti, 2002 yil.
7. Kalanova I.M. "Kattalarda hamshiralik parvarishi amaliyoti" o'quv - uslubiy qo'llanma, Samarkand, 2008yil.
8. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligining amaldagi buyruqlari



## KARIES KASALLIGINI KLASIFIKATSIYASI VA DOVALASH USULLARI

Baxtiyor Yaxshiyev Hikmatovich

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani Abu Ali ibn Sino nomidagi

Jamoat salomatligi texnikumi Stomatologiya ishi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kariyes kasalligini klasifikatsiyasi, kelib chiqish sabablari hamda profilaktika ishlari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so`zlar:** stomatologiya,karies,patologiya,profilaktika,kompleks,davolash

**Аннотация:** В данной статье рассматривается классификация кариеса, его причины и меры профилактики.

**Ключевые слова:** стоматология, кариес, патология, профилактика, комплекс, лечение.

**Abstract:** This article discusses the classification of caries, its causes and preventive measures.

**Key words:** dentistry, caries, pathology, prevention, complex, treatment.

Stomatologiyaning kundan kunga rivojlanib borishi, amaliyotda yangi zamonaviy tashxis qo‘yish, standart davolash usullarini qo‘llash, stomatologik kasalliklarning oldini olish, hamda talabalarning nazariy va amaliy ko‘nikmalarini oxirgi fan yutuqlari asosida takomillashtirish va rivojlanadirish bilan ifodalanadi.

Tish og’rig’i -bu bolalar va kattalarni, erkaklarni va ayollarni cho’chitadigan so’zdir. Tishlardagi kuchli og’riqning asosiy sabablaridan biri karies hisoblanadi. Bu kasallik turli darajalarda xavfli bo’lishi mumkin, ammo u har holda davolanishi kerak. Maqolada biz kariesni davolashning eng samarali usullari haqida gapiramiz, shuningdek kasallikning oldini olish to’g’risida to’xtalib o’tamiz.

Karies — og’iz bo’shlig’ining eng keng tarqalgan kasalliklaridan biridir. Karies paydo bo’lganda avvalo tish emali shikastlanadi, agar davolanmasa, u dentin (tishning qattiq to’qimalari) ni shikastlaydi. Karies lotin tilidan olinganda «chirish» degan ma’noni anglatadi, xalq orasida karies «tish chirishi», «tish qurtlashi» degan atamalar bilan nomlanadi, ikkinchi atamani ishlatish tibbiyot nuqati nazaridan biroz noto’g’ri.Kariesning dastlabki belgisi — tish emalidagi qora dog’lar paydo bo’lishi. Agar bu dog’larga e’tibor berilmasa, karies diametri oshishi va patologiya tish to’qimalariga chuqurroq tarqalib, «teshik» paydo qilishi mumkin. Karies tish emalini va dentinni shikastlab, teshib o’tsa, u pulpa (tish yumshoq to’qimalari) ga yetib



boradi va juda kuchli og'riqqa sabab bo'lishi mumkin. Pulpaning yallig'lanishi — pulpit deya nom olgan.

Tishning zararlanishi darajasi qarab kariesni dog'lar (tish sirtida rang o'zgarishi), yuzaki karies (sirt zararlanish), o'rta karies (dentinning yuqori qismi zararlangan) va chuqur karies (dentin deyarli butunlay zararlanib, pulpagacha yetib borgan) ga ajratishadi. Bundan tashqari, emal, dentin va ildiz sementlarining karieslari alohida tasniflanadi — ildiz sementi kariesida kasallik milk ostida paydo bo'ladi. Yuzaga kelishi joyiga qarab fissur (tish chuqurchasida sodir bo'ladi), approksimal (tishlar orasida) va bo'yin oldi (milk yaqinida yoki undan pastda) kariesi tasniflanadi. Bundan tashqari, oldingi tishlarning karieslari ham mavjud bo'lib, ular ayniqla tabassum estetikasiga salbiy ta'sir qiladi. Odatda oldingi tishlar zararlanganda, hatto stomatologlardan qo'rqqanlar ham ularga darhol murojaat qilishadi. Tish kariesi bor-yo'qligini aniqlash juda oson. Tish sirti rangi o'zgarishi (dog' qoramtil yoki oqimtil bo'lishi mumkin) yoki uning tuzilishi, masalan g'adir-budurligi — kasallik paydo bo'lishidan dalolat beradigan alomatlardir. Shuningdek, ovqatlanganda tish og'rig'i, ayniqla shirin, issiq va sovuq ta'sirida yuz beradigan kuchli og'riq ham kariesdan dalolat beradi. O'g'izdan nohush hid kelishi ham kasallik alomati bo'lishi mumkin. Agar kasallik o'rta bosqichga o'tib ketgan bo'lsa, tishda chuqurcha paydo bo'lgan bo'ladi — odatda u til bilan osonlikcha seziladi. Biroq, «teshik» faqatgina karies tufayli sodir bo'lmaydi, aniq tashxisni faqat tish shifokori qo'yadi. Tish kariesining ko'p faktorli modeli Kariesogen holat - bir yoki bir necha kariesogen omillarning tishga ta'siri natijasida, tishni kislotalar ta'siriga sezuvchanligidir. Albatta, bunda kariesni rivojlanishida ishga tushiruvchi mexanizm bo'lib, og'iz bo'shlig'ini mikroflorasi va uglevodlar, ularning tishning qattiq to'qimasi bilan o'zaro bog'liqligi va ta'siri hisoblanadi. Tish to'qimasining rezistentligi pasayganda kariesogen holat tezda va oson rivojlanadi. 30 Klinikada og'iz bo'shlig'ida kariesogen holat quyidagi simptomlar bilan namoyon bo'ladi: a) og'iz bo'shlig'i gigienasining pastligi; b) ko'p miqdorda tish toshlari va tish karashlari; v) ko'p miqdordagi oqish karioz dog'lar; g) milkning qonuvchanligi. Tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, kariesni tarqalishi baland bo'lgan regionlarda, tishda kariesi mavjud bo'limgan kishilar ham uchraydi. Shuningdek, kariesni tarqalishi o'rtacha miqdordagi regionlarda yuqori darajada kariesga uchragan kishilar ham aniqlanadi. Ular kariesga moyilligi bor guruhga kiritiladi. Karies rezistentlik va kariesga moyillik. Kariesga moyilligi yuqori tishlarda karies tezroq, yuzaga keladi. Bu umumiylar organizm holatiga bog'liq. Kariesga yo'ldosh umumiylar, ayni vaqtida, yetuk tishlarning strukturasi va tarkibiga ta'sir



ko`rsatmaydi, lekin organ va sistemalarning funksional o`zgarishi karioz jarayonni kechishiga, og'iz bo`shlig'i suyuqligini tarkibiga va miqdoriga ta'sir qiladi. Aktiv demineralizasiya jarayonida kariesogen omillar o`z ta'sirini yo`qotsa, demineralizasiya jarayonining sekinlashuvi yoki to`xtashi kuzatiladi. Karies kelib chiqishida bir qancha faktorlar sabab bo`ladi va ma'lum bir sharoitdagina ular kasallik sababchisi bo`lishi mumkin. Tishlarning kariesga chidamliligi yoki karies rezistentligi quyidagilar bilan ta'minlanadi:

- a) Tish emali va boshqa qattiq to`qimalarning kimyoviy tarkibi va strukturasi bilan; b) Pellikulaning mavjudligi bilan;
- v) So`lakning optimal kimyoviy tarkibi va minerallashish aktivligi bilan;
- g) Yetarli miqdordagi og'iz suyuqligi bilan;
- d) Tish emalining past o`tkazuvchanligi bilan;
- y) Yetarli chaynov bosimi va tish yuzasini o`z-o`zini tozalanishi bilan;
- j) Tish karashini tarkibi bilan;
- z) Og'iz bo`shlig'inинг gigienasi bilan;
- i) Parhezning afzalliklari bilan;
- k) Tish chiqqandan keyin emalning o`z vaqtida va to`liq yetilishi bilan;

So`lak ajralishi yoki uning sifat miqdori (qovushqoqligi) pasaysa, karies jarayoni faollashadi. Makro va mikroelementlarning yuqori konsentratsiyasi karies jarayonini to`xtatadi. Qalin va silliq emalni mavjudligi uning zinch strukturasi, kristalik panjaradagi minimal bo`shliqlar karioz jarayonini sekinlashtiradi. Chuqurcha, egatcha, burma, ariqchalarni mavjudligi yupqa emal va noziq struktura patologik jarayonni faollashtiradi. Ko`pincha, tish kariesi yetishmagan emal fissuralarida rivojlanadi. Shuningdek bu jarayon bo`yin sohalarida ham aktiv kechadi. V.K. Leontev (1984, 1989) elektrometriya orqali, emalning yetilishi dinamik jarayonligini tishning qaysi guruhga mansubligi, tishning topografiyasi va boshqa omillarga bog'liqligini isbotlagan. Tish emalining tez yetilishi kesuv qirrasi va do`mboqlar sohasida tish yorib chiqqandan keyin 4-6 oydan keyin rivojlanadi. Kurak va qoziq tishlarning kesuv qirrasi emali bo`yin oldi emali sohasiga nisbatan 2marta tezroq yetiladi. Tish fissuralaridagi emalning yetilishi uning so`lak bilan yuvilishiga va karash bilan qoplanish darajasiga bog'liqdir. Emalning zichlanishi bu makro va mikroelementlar ta'sirida emalning kimyoviy strukturasini o`zgarishidir. Bu 32 barcha omillardan shu ma'lum bo`ladiki, yoshlarda qariyalarga nisbatan karioz jarayoni tez va aktiv kechadi. Tishlarni yo'qotishning eng asosiy sabablaridan biri kariyesdir. Uning paydo bo'lishini oldini olish uchun og'iz gigiyenasi qoidalariga



mas'uliyat bilan yondashish kerak. Og'iz bo'shlig'ida bakteriyalarning ko'p miqdorda bo'lishi tish va milklar salomatligiga tahdid soladi.

**Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. Xalilov I.X., Yo`ldoshxonova A.S., va boshq., Bolalar terapevtik stomatologiyasi va stomatolog`ik kasalliklar profilaktikasi. Toshkent, 2011.
2. Xalilov I.X., Rahmoov Sh.X. Bolalar terapevtik stomatologiyasi Toshkent, 2015.
3. Xalilov I.X., Yo`ldoshxonova A.S, Rahmonov X.Sh. Bolalar terapevtik stomatologiyasi va stomatologik kasalliklar prafilaktikasi. Yangiyo'l, 2006.
4. Muhamedov I.M., Rizaev J.A., Daminova Sh.B., Muhamedova M.S. Stomatologiyada klinik mikrobiologiya. Toshkent, 2015.
5. Handbook of Paediatric Denistry A. Kameron, 2010/



## AYOLLAR VA BOLALARDA REPRODUKTIV SALOMATLIK

*Durdona G`ulomova Komiljon qizi*

*Buxoro viloyati G`ijduvon tumani*

*Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada onalar va bolalar salomatligini saqlash va mustahkamlash, sog'lom, jismonan va aqlan barkamol bolalarni tarbiyalashga qaratilgan davlat va ijtimoiy-tibbiy tadbirlar tizimi bayon etilgan. Bu borada sog'liqni saqlash tizimida onalar va bolalar salomatligini yanada muhofaza qilish bo'yicha taklif va tavsiyalar tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** Reproductiv salomatlik, inklyuziv ta'llim, "Ona va bola skrining", "Ayollar maslahatxona"lari, "Qizlar salomatlik markazlari", tibbiyot brigadalari, Perinatal markaz.

**Аннотация:** В данной статье описана система государственной и социально-медицинской деятельности, направленная на сохранение и укрепление здоровья матери и ребенка, воспитание здоровых, физически и умственно компетентных детей. В связи с этим исследованы предложения и рекомендации по дальнейшей охране здоровья матери и ребенка в системе здравоохранения.

**Ключевые слова:** Репродуктивное здоровье, инклюзивное образование, «Скрининг матери и ребенка», «Женские консультации», «Центры здоровья девочек», медицинские бригады, Перинатальный центр.

**Abstract:** This article describes the system of state and socio-medical activities aimed at preserving and strengthening the health of mother and child, raising healthy, physically and mentally competent children. In this regard, proposals and recommendations for further protection of maternal and child health in the health care system were examined.

**Key words:** Reproductive health, inclusive education, "Mother and child screening", "Women's clinics", "Girls' health centers", medical teams, Perinatal Center.

Reproduktiv salomatlik — bu reproduktiv tizim va uning faoliyatiga bog'liq barcha masalalar borasida faqat kasallik va kamchiliklar yo'qligi bo'libgina qolmay, balki to'liq jismoniy, aqliy va ijtimoiy muvaffaqiyatlar holati hamdir. Insonning eng katta boyligi bu albatta, uning sog'ligidir. Shu bois, keyingi yillarda yurtimizda



aholining salomatligini yaxshilash va mustahkamlash borasida katta ishlar qilinmoqda. Ayniqsa, xotin-qizlar sog'ligiga qayg'urish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'naliшlaridan biriga aylandi. Mamlakatimizda bu borada qator vazifalar va chora-tadbirlar belgilanib, yildan-yilga ayollarga tibbiy xizmat ko'rsatish sifati yaxshilanmoqda, ajratiladigan mablag'lar ham sezilarli oshirilmoqda. Ayollar salomatligi jamiyat boyligi hisoblanar ekan, demak tug'ilgan kunidan boshlab qizlarning sog'ligini saqlash va mustahkamlash yo'lida global va mahalliy miqyosda doimiy ko'mak va imkoniyatlar berilishi tabiiydir. So'nggi yillarda mamlakatimizda fertil yoshidagi ayollarning sog'ligini tiklash maqsadida bepul dori va vitaminlar bilan ta'minlanishi yo'lga qo'yildi. 2021 yilda ushbu vazifalarni bajarish uchun 30 milliard so'm ishlatilganligi, 2022 yil davomida tug'ish yoshidagi, homilador va bola parvarishidagi ayollarni dori va vitaminlar bilan ta'minlash uchun 100 milliard so'm ajratilishi ayollar salomatligiga yana bir muhim qadamdir. Kasallikni davolagandan ko'ra, uning oldini olish ma'qulligi hech kimga sir emas. Shuning uchun, davlatimiz rahbarining ko'rsatmasiga asosan, 9-12 yoshdagi o'smir qizlarni odam papillomasi virusiga qarshi emlash va boshqa turdag'i vaktsinalari uchun 2022 yilda 200 milliard so'm ajratilganligi to'g'risida xushxabar xalqimiz tomonidan olqishlandi desak mubolag'a bo'lmaydi. Undan tashqari, 3 million nafar xotin-qizlarni onkologik skriningdan o'tkazishni tashkil etish va bu tadbirlar uchun davlat byudjetidan 40 milliard so'm ajratish belgilandi. Hech shubhasiz, davlatimizning ayollar o'rtaida kasalliklar profilaktikasi bo'yicha tizimli va davomli tadbirlari o'z natijasini beradi.

Reproduktiv salomatlik nafaqat ayolning, balki erkakning ham o'zidan sog'lom surriyod qoldira olish davridagi salomatligidir. Ayniqsa, bu borada o'smir-yigit-qizlarning salomatligiga jiddiy e'tibor qaratish zarur. Bo'lajak onaning qachon va qanday sharoitlarda ona bo'lishini nazorat qilish, uning va tug'ilajak bolaning ham salomatligi uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratish muhim. Hozirgi kunda bo'lajak onalar bo'lmish qizlarimiz, farzandini dunyoga keltirishdek o'ta mas'ulyatli vazifaga tayyorgarlik ko'rishda tibbiy jihatdan savodxonmi? Bu boradagi maxsus adabiyotlar, gazeta, jurnallar, shuningdek internetdan foydali bo'lgan ma'lumotlarni olish uchun xotin-qizlarimiz vaqt topa olishayaptilarmi? O'zlarining salomatligi yo'lida kerakli chora-tadbirlarni amalga oshirishmoqdami?

Reproduktiv salomatlik masalasi faqatgina tug'ruqlar oralig'i uch yildan kam bo'lmashligiga e'tibor qaratishdangina iborat emas. Balki u o'z ichiga kengroq vazifalarni qamrab oladi. Bunda asosiy e'tibor oila farovonligini ta'minlash, ularda ijobjiy psixologik iqlimning hukm surishi, onalar va bolalar salomatligini saqlash, oilalarning tom ma'noda mustahkamligini ta'minlash kabilar nazarda tutiladi.



Albatta 16-17 yoshlardagi qiz bola organizmi hali to‘la etilgan bo‘lmaydi. Ertal farzand ko‘rish yosh ona salomatligiga ham, undan tug‘ilajak bola salomatligiga ham ma’lum darajada xavf tug‘dirishi mumkin.

Bo‘lajak onalar bo‘lmish qizlarimizning reproduktiv salomatliklarini muhofaza qilishni oilada, jamoatchilikda va barcha ta’lim muassasalarida keng ko‘lamda amalga oshirish kerak. Albatta davlatimiz tomonidan yurtimizda bo‘lajak onalarning salomatligini muhofaza qilish bo‘yicha keng ko‘lamda ishlar amalga oshirilmoqda. O‘g‘il-qizlarning salomatligi uchun maktablarda, barcha ta’lim muassasalarida targ‘ibot-tashviqot ishlari olib boriladi, tibbiy ko‘riklardan o‘tkaziladi. Hozirgi jadallahsgan zamonamizda kelajak avlodning etarli darajada salomat bo‘lishi, millatning genetikasi, nasli sog‘lom bo‘lishi dolzarb muammolardandir.

O‘siprinlik – nozik davr. Ayniqsa, ota-onalar va pedagoglar bu davrda bolalar bilan o‘zaro munosabatda do‘stona yo‘l tutishlari kerak. Bu davrda o‘siprin qizlar jadal o‘sgani bois ularning organizmida turli xil a’zolarning muvozanati buziladi. Qiz bolalar reproduktiv salomatliklarining shakllanishida jismoniy va psixologik sog‘lom bo‘lishi masalalariga e’tiborni qaratish va bu yo‘ldagi ishlarni ko‘paytirish tajribasi ijobjiy natijalar berishi aniqlangan.

Qiz bolalarda reproduktiv salomatlikning shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi xavfli omillar qatorida ichki sekretsiya bezlari va moddalar almashinuv jarayonlarining buzilishi, vaqtida ovqatlanmaslik, vegetativ asab tizimi kasalliklari, allergik kasalliklardir. Ushbu kasalliklarning natijasida, qizlarda tez-tez charchash, holsizlik, kamqonlik, tezda asabiylashish, yig‘loqilik, quvvatning kamligi h.k. yuzaga keladi. Ularning oldini olishda oila va tibbiy xodimlar, pedagoglar tomonidan maqsadga qarab yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligini ukdirib o‘tish joizdir. Qiz bola organizmiga bulardan tashqari tamaki chekish, spirtli ichimliklar ichish, giyohvandlik kabi zararli odatlar o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatadi. Ko‘rsatib o‘tilgan xavf omillar keyinchalik ularda homiladorlikning fiziologik kechishiga to‘siq bo‘lib, turli xil patologik tug‘ruqlarga sabab bo‘ladi. Kasallikni davolagandan ko‘ra, uning oldini olish ma’qulligi hech kimga sir emas. Shuning uchun, davlatimiz rahbarining ko‘rsatmasiga asosan, 9-12 yoshdagi o’smir qizlarni odam papillomasi virusiga qarshi emlash va boshqa turdagи vaktsinalari uchun 2022 yilda 200 milliard so‘m ajratilganligi to‘g’risida xushxabar xalqimiz tomonidan olqishlandi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Undan tashqari, 3 million nafar xotin-qizlarni onkologik skriningdan o‘tkazishni tashkil etish va bu tadbirlar uchun davlat byudjetidan 40 milliard so‘m ajratish belgilandi. Hech



shubhasiz, davlatimizning ayollar o'rtasida kasalliklar profilaktikasi bo'yicha tizimli va davomli tadbirlari o'z natijasini beradi.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sod Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 apreldagi "2022-2026 yillarda onalik va bolalikni muhofaza qilishni kuchaytirish" to'g'risidagi Qarori
3. Vazirlar Mahkamasining "Respublikada onalar va bolalarning salomatligini mustahkamlashga doir kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Qarori
4. A.G'afurov, A.Abdukaimov, J.Tolipova, O.Ishankulov, M.Umaraliyeva, I.Abduraxmovning Biologiya kitobi
5. M.Vaxidova Reproductiv salomatlik-bu nima manba: <https://xadicha.uz>
6. UNICEF-har bir bola uchun. Inklyuziv ta'lim manba: <https://www.unicef.org>
7. O'zME . Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
8. Ota- onaning majburiyatlari manba: <https://advice.uz>
9. Ona va bola skriningi 195-sod 23.04.2004 manba :<https://lex.uz>



## TERINING YUQUMLI KASALLIKLARIDA ZAMONAVIY DAVOLASH USULLARI

*Elyanora Muhammedova Hayriddinovna*

*Buxoro viloyati G'ijduvon tumani*

*Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada teri kasalliklari hamda ularning kelib chiqish sabablari va profilaktika choralari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so`zlar:** teri,profilaktika,kompleks davolash,tamoyil,zamburug`,qichima

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются кожные заболевания, их причины и меры профилактики.

**Ключевые слова:** кожа, профилактика, комплексное лечение, принцип, грибок, зуд.

**Abstract:** This article discusses skin diseases, their causes and preventive measures.

**Key words:** skin, prevention, complex treatment, principle, fungus, itching.

Hozirgi kunda teri kasalliklari bilan xastalangan bemorlar soni aholi orasida ko‘payib bormoqda. Bulardan teri allergik kasalliklari, psoriaz, ya’ni qipiqli temiratki, vitiligo, alopetsiya ( soch to‘kilishi), husnbuzar kasalliklaridir. Shuni aytish joizki, oxirgi vaqtida teri kasalliklari orasida og‘ir kechayotgani po‘rsildoq yara kasalligi hisoblanadi. Shuningdek, turli ichki va tashqi omillar teri kasalliklarining nisbatan og‘ir kechishiga sabab bo‘ladi.

Xususan, organizm immun tizimining buzilishi, modda almashinushi, neyro-endokrin kasalliklari xamda tashqi omillardan ekologik omillar, alimentar, asabiylashish va shu bilan bir qatorda bemor tomonidan nazoratsiz dori vositalarini qabul qilishlari kasalliklarning rivojlanishi va og‘ir shakllariga o‘tib ketishiga sabab bo‘lmoqda. Ma’lumki, teri butun inson tanasini qoplab turuvchi a’zo bo‘lib qolmay, balki barcha ichki a’zolar bilan uzviy bog‘liq xolda, qator muhim vazifalarni bajaradi. Odamning sog‘lig‘i, yurak-qon tomir, asab, oshqozon-ichak trakti, endokrin tizimi bilan bir qatorda, terining funksiyasi va xususiyatiga ham bog‘liq. Sanoat, qishloq xo‘jaligi, tog‘kon sanoati va ishlab chiqarishning o’sishi terining kasbiy kasalliklarining rivojlanishi bilan parallel bo‘ldi. Eng birinchi xabar qilingan zararli ta’sirlar tog‘-kon sanoatida metall tuzlaridan terining yaralari edi. Populyatsiyalar va madaniyatlar yangi materiallardan foydalanishni kengaytirganligi



sababli, yangi ko'nikmalar va yangi jarayonlar paydo bo'ldi. Bunday texnologik yutuqlar ish muhitiga o'zgarishlar olib keldi va har bir davrda texnik o'zgarishlarning ba'zi jihatlari ishchilarning sog'lig'iga putur etkazdi. Kasbiy kasalliklar, xususan, teri kasalliklari uzoq vaqtdan beri sanoat yutuqlarining rejasiz qo'shimcha mahsuloti bo'lib kelgan.

65 yil oldin, masalan, Qo'shma Shtatlarda terining kasbiy kasalliklari barcha qayd etilgan kasb kasalliklarining 70-34% dan kam bo'limgan. Yaqinda Qo'shma Shtatlari Mehnat Departamenti tomonidan to'plangan statistik ma'lumotlar chastotaning taxminan XNUMX% gacha pasayishini ko'rsatadi. Bunday holatlar sonining kamayishi avtomatlashtirishning kuchayishi, ishlab chiqarish jarayonlarining yopilishi hamda rahbariyat, rahbarlar va ishchilarning umuman kasbiy kasalliklarning oldini olish bo'yicha bilimini oshirish natijasida bo'lgani ayttilmoqda. Shubhasiz, bunday profilaktika choralar yaxshi profilaktika xizmatlari mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan ko'plab yirik korxonalarda ishchi kuchiga foyda keltirdi, ammo ko'p odamlar hali ham kasbiy kasalliklarga yordam beradigan sharoitlarda ishlaydi. Afsuski, aksariyat mamlakatlarda kasbiy teri kasalligi holatlari soni, sabab omillari, yo'qolgan vaqt yoki haqiqiy xarajatlarni aniq baholash yo'q.

Sanoat yoki kasbiy dermatit yoki professional ekzema kabi umumiylar atamalar kasbiy teri kasalliklari uchun ishlatiladi, ammo sabab va ta'sirga tegishli nomlar ham keng tarqalgan. *Tsement dermatiti, xrom teshiklari, xlorakne, shisha tolali qichishish, yog 'bo'g'imirli va kauchuk toshma* ba'zi misollardir. Agentlar yoki ish sharoitlari tomonidan qo'zg'atilgan teri o'zgarishlarining xilma-xilligi sababli, bu kasalliklar kasbiy dermatozlar deb ataladi - bu atama to'g'ridan-to'g'ri ish muhitidan kelib chiqadigan yoki og'irlashtiradigan har qanday anormallikni o'z ichiga oladi. Teri, shuningdek, kimyoviy zaharlanishni keltirib chiqaradigan ba'zi toksik moddalar uchun kirish yo'li bo'lib xizmat qilishi mumkin *teri orqali so'riliishi*. Quyida yuqumli mollyusk kasalligini kelib chiqish sabablari hamda davolash usullarini ko'rib chiqamiz.

Yuqumli mollyusk - degenerativ va sitoliz holatlari bilan kechadigan virus kasallik. Etiologiyasi va patogenezi. Kasallik qo'zg'atuvchisi (*Molluscovirus hominis*) filtrlanuvchi, DNKli virus bo'lib, aksariyat bog'cha, kichik m aktab yoshdag'i bolalarda (1-7 yosh) kasallik chaqiradi. Ularga kasallik to'g'ridan-to'g'ri virus tashuvchidan yoki umumiylar sochiq, vanna, idishtovoq, o'yinchoq va boshqalardan yuqishi mumkin. Ayrim holatlarda kasallik bolalar m uassasasida epidem ik tarqalib ketishi m um kin. K attalarga virus maishiy-kontakt yo'li bilan birgalikda, jinsiy aloqa yo'li orqali ham yuqadi. Shu sababli yuqumli mollyusk jinsiy



yo‘1 bilan yuquvchi kasalliklar guruhiga kiradi. Klinikasi. Kasallikning inkubatsion davri 2-3 haftadan bir necha oygacha davom etadi. Sog’lom teri yuzasida m ayda (1-2 mm), asta-sekin kattalashadigan, chegaralari aniq, yaltiroq, oqish marvarid rangli, markazida kindiksimon botiqchali, zich-elastik konsistensiyaga ega tugunchalar paydo bo’ladi. Ular yuz, ko‘z atrofi, bo'yin, ko'krak, qo'l panjası, qorin sohasi, jinsiy a’zolar terisida uchraydi. Kasallik toshmalari subyektiv hissiyotlarsiz kechadi. Tugunchalar yon tomonlaridan siqib ko'rirlganda, markazidagi botiqchadan bo'tqasimon massa chiqadi. Bu massa muguzlangan epiteliy hujayralaridan iborat bo'lib, m ollyusk tanachalari deb ataladi. Tugunchalar son va hajm jihatidan har xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ayrim hollarda tugunchalar ingichka asosda - oyoqchada joylashadi. Yuqumli mollyuskning quyidagi klinik turlari farqlanadi: ko'p sonli mayda toshmali, ingichka asosli (oyoqchali) va gigant toshmali. Tashxis. Klinik belgilarga asoslanib kasallikni aniqlash qiyin emas. Yuqumli mollyusk terining o’simtali toshmalari va jinsiy a’zolarda joylashgan holatlarda zaxm toshmalari bilan taqqoslab ko'rildi. Bunda yuqumli mollyuskni boshqa turdagи toshma elementlaridan ajratib turuvchi belgi siqib ko'rirlganda, markazdagi botiqchadan bo'tqasim on massa chiqishi va mikroskopda ko'rirlganda katta, oval, protoplazmasida kiritmalari bor hujayralar (mollyusk tanachalari) topilishidir. Jinsiy aloqa orqali kasallik yuqtirilgan hollarda zaxm va OIVga qon tekshiruvlarini o’tkazish o’rinlidir. Davosi. Tugunchalar pinset bilan siqib tashlanadi yoki o’tkir uchli Folkman qoshiqchasi bilan qirib olinadi, ba’zan diatermokoagulyatsiya, kriodestruksiya usullari qo’llaniladi. O’rni 2-5 % li yodning spirtli eritmasi bilan artiladi va yuzasiga virusga qarshi malhamlar (bonafon, oksalin, gossipol, tebrofen, interferon) surtiladi. Ikkilam chi infeksiya bilan a so ra tla n g a n h ollarda an tib io tik li malhamlar (tetrasiklin, sintomitsin, eritromitsin va boshqalar) ishlatiladi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Kumar, Abbas, Fausto: Robbins and Cotran Pathologic Basis of Disease, 7th 556
2. Hamidov J.H., Oqilov A.T., Saidov T.M., Umumiyyobiologiyadan amaliy mashg‘ulotlar, T., 1970; Kovannatomiya grudi, M., 1978;
3. Ahmedov N.K., Atlas. Odam anatomiyasi [2 jildli], 2-j., 2005.
4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005-y.)
5. ZiyayevaM.F. XodjashevaM.D. “Kattalarda hamshiralik parvarishi” 1-qism, “Voris-nashriyot” Toshkent 2014yil.
6. Haydarov G‘.O. “Ichki kasalliklar” Toshkent, “Abu Ali ibn Sino” nashriyoti, 2002 yil.
7. Kalanova I.M. “Kattalarda hamshiralik parvarishi amaliyoti” o‘quv - uslubiy qo’llanma, Samarkand, 2008yil.
8. O‘zbekiston Respublikasi Sog’lijni Saqlash Vazirligining amaldagi buyruqlari



ME'DA VA O`N IKKI BARMOQ ICHAKNING YARA  
KASALLIKLARIDA ZAMONAVIY DAVOLASH USULLARI

Dilrabo Ikramova Islamovna  
Buxoro viloyati G'ijguvon tumani  
Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada me'da - ichakning kislota va HP - infeksiyaga bogliq kasalliklari, ya'ni surunkali gastrit va yara kasalliklari suyaklar mineral zichligining kamayishida muxim xavfli omillar ekanligini aniqlashga xarakat qildik. Va bu kasalliklarda suyak tuqimasida rivojlanadigan asoratlarning oldini olish hamda davolash metodikalarini ishlab chiqishni uz oldimizga maqsad qilib quydik.

**Kalit so'zlar:** Osteoporoz, Helikobakter pilori, korrelyasion bog'liqlik, suyak tuqimasining zichligini.

**Аннотация:** В данной статье мы пытались выяснить, что заболевания желудка – кишечная кислотность и НР – инфекция, то есть хронические гастриты и язвенные болезни, являются важными факторами риска снижения минеральной плотности костной ткани. И мы поставили перед собой цель разработать методы профилактики и лечения осложнений, развивающихся в костной ткани при этих заболеваниях.

**Ключевые слова:** остеопороз, Helicobacter pylori, корреляция, плотность костной ткани.

**Abstract:** In this article we tried to find out that stomach diseases - intestinal acidity and HP - infection, that is, chronic gastritis and peptic ulcers, are important risk factors for reducing bone mineral density. And we set ourselves the goal of developing methods for the prevention and treatment of complications developing in bone tissue in these diseases.

**Key words:** osteoporosis, Helicobacter pylori, correlation, bone density.

**O'n ikki barmoqli ichak yarasi** (lot. *ulcus duodeni*) — surunkali kasalliklar guruhiga kiruvchi va a'zoning shilliq qavatida yarali nuqson paydo bo'lishi bilan tavsiflanadigan patologiya. Kasallik davomiyligi remissiya davrlari, alomatlarining deyarli yo'qligi va xuruj olish (retsidiv) davri bilan boruvchi to'lqinsimon kechishga ega. Ko'p hollarda 12 barmoqli ichak yarasi oshqozon yarasi bilan bir vaqtning o'zida tashxislanadi — bu holda umumiy patologiya haqida gapiriladi.



Osteoporoz (OP) rivojlanishida asosiy xavfli omillar: yosh, jins, irsiy va qonstitusional omillar, alimentar omillar, zararli odatlar va turmush tarzi hamda har xil kasalliklar, jumladan, hazm trakti kasalliklari sanaladi. Adabiyotlarda asosan, birlamchi OP (postmenapauza va senil) rivojlanishi va asoratlari haqida ta'kidlangan. Ikkilamchi OP haqida yetarlicha kursatilmagan. Ammo, ikkilamchi OP, ya'ni revmatologik, onkologik, endokrinologik, hazm trakti, upkaning surunkali kasalliklari va buyrak kasalliklari, gipodinamiya, uzoq vaqt turli dori vositalari (glyukokortiksteroidlar, immunodepresantlar, tireoid gormonlari va x.k.) qabul qilish xam tibbiyotning uta jiddiy muammolaridan biri sanaladi. Jumladan, hazm trakti kasalliklari (surunkali pankreatit va gepatitlar, malabsorbsiya sindromi). Birok, me'da - ichak kasalliklarida kelib chiqadigan va rivojlanadigan OP haqida mavjud adabiyotlarda ifodalanmagan. Bu muammo gastroenterologlar uchun xam yetarli axamiyatga egadir. Negaki, me'da - ichakning maldegistiya va malabsorbsiya (jigar kasalliklari, me'da rezeksiyasidan keyingi xolatlar, ingichka va yug'on ichak kasalliklari xamda yara kasalliklari) bilan kechadigan va osteoporoz rivojlanishiga olib keladigan kasalliklari keng tarqalgan. Ammo, me'da - ichak kasalliklarida suyaklar mineral zichligi o'zgarishi haqida qarama - qarshi fikrlar xam yuq emas. Tibbiyotda, o'n ikki barmoqli ichak yarasini bir necha turini tasniflash qabul qilingan. Ular barchasi o'z xususiyatlariga ega va har birini davolash uchun individual yondashuv talab qilinadi.

Klinik shakliga ko'ra o'tkir (birinchi bor aniqlangan) va surunkali yara kasalligi farqlanadi. Yara kasalligi latent (yashirin), yengil (ba'zida retsidiivlar bilan), o'rta (yil davomida 1-2 retsidiivlar) va og'ir (yiliga 3 va undan ko'p retsidiivlar) bilan kechadi.

Ushbu kasallik rivojlanishining asosiy sababi *Helicobacter pylori* — oshqozon yarasi rivojlanishiga sababchi bo'ladigan patogenlar hisoblanadi. Oshqozon yarasi uzoq vaqt davom etganda bakteriyalar albatta o'n ikki barmoqli ichak shilliq qavatiga ham tushadi va u yerda yara hosil qiladi. Ushbu bakteriyalar oshqozon yarasi bo'lган 87% bemorlarda, 12 b. ichak yarasi bo'lган 95% bemorlarda aniqlanadi. 12 barmoqli ichak yarasining paydo bo'lishiga sabab bo'ladigan boshqa ko'plab omillar ham mavjud. Unga quyidagilar kiradi:

- Surunkali charchoq, stress, doimiy qo'zg'alanlik, depressiya, psixoloemotsional fonda buzilishlar;
- Genetik darajada moyillik;



- Me'da shirasi nordonligining oshib ketishi — bu holda u o'n ikki barmoqli ichakka kirib, shilliq qavatni qo'zg'atadi;
- O'n ikki barmoqli ichakda surunkali yallig'lanish jarayoni — duodenit;
- Boshqa patologiyalar fonida immunitetning sezilarli darajada pasayishi;
- Ba'zi dori-darmonlardan uzoq muddatli foydalanish — masalan, steroid / nosteroid yallig'lanishga qarshi (analgin, aspirin, diklofenak), antibakterial vositalar;
- Chekish, ayniqsa och qoringa;
- Gastrinoma;
- Ovqatlanish ratsionining buzilishi.

Mazkur kasallikni davolash uzoq davom etadi, bemor butun hayoti davomida parhezga amal qilishi kerak bo'ladi. Garchi hammasi o'ta ayanchli emas — shifokorlar parhez to'lqinsimon bo'lishi mumkinligidan ogohlantiradilar: kasallikning xuruji davrida oziq-ovqat maksimal darajada chegaralangan va eng avaylovchi bo'ladi, uzoq muddatli remissiya davrida esa istalgan, hatto zararli oziq-ovqatlarni iste'mol qilishga ham ruxsat beriladi.

## REFERENCES

1. Франке Ю., Рунге Г. Остеопороз. - М.: Medicina, 2005. - 300 с.
2. Хилова К. "Системные остеопороз I Costnix System System Zubochelystnoy. Словакофарма Revuel. 2008. №4 S. 99-101.
3. Simmerman Ya.s. Патология гастродуоденона I Helicobacter pylori: Точка Стрена. Клин фармакол. я потею. 2006; 2: 37-40.
4. Simmerman Ya.s. Yazvennaya Bolazn I Helicobacter pylori - Infusion: Novie Fact, Razhantleniya, преололологя. Clin, Med. 2005; 4: 67-70.
5. Kawamoto R, Murase C. //Relationship between bone metabolism and effects of lifestyles after gastrectomy. J UOEH. 2005 Mar 1;27(1):73-87.
6. Usmonov, M.T. & Shokirov.,Sh.H, (2022). Teylor formulasini matematik masalalarni yechishdagi ahamiyati.



## YURAK QON TOMIR KASALLIKLARIDA ZAMONAVIY TEKSHIRISH USULLARI

Zilola Abdullayeva G'afurovna

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani

Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi

**Annotatsiya:** Chekish va metabolik sindrom, xususan semirish O'SOKning asosiy sababi va turli yurak kasalliklari, xususan YuIK va gipertoniya rivojlanishining asosiy xavf omillaridan biridir. Ushbu kasalliklarning shakllanish bosqichida allaqachon patogenetik mexanizmlar uchraydi. Agar bemorlarda o'pkada patologiya bo'lsa, demak, yurak patologiyasi mavjud. Agar yurak-qon tomir tizimidan patologiya mavjud bo'lsa, unda surunkali kor pulmonale, turli xil ritm buzilishlari, o'pka arteriyasi tromboemboliyasi paydo bo'lishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** nafas olish tizimi, yurak-qon tomir tizimi, diagnostika

**Abstract:** In the world, CKD ranks fourth among all diseases in terms of mortality. According to the WHO, "by 2030, OSA will take the third place among the causes of death in the world. Currently, about 3 million deaths are related to OSOK every year. Smoking and metabolic syndrome, especially obesity, is the main cause of COPD and one of the main risk factors for the development of various heart diseases, especially CHD and hypertension. Pathogenetic mechanisms are already found in the stage of formation of these diseases. If the patients have a pathology in the lungs, then there is a pathology of the heart. If there is a pathology of the cardiovascular system, then chronic cor pulmonale, various rhythm disorders, and thromboembolism of the pulmonary artery may appear.

**Keywords:** respiratory system, cardiovascular system, diagnostics

Yurak va qon tomirlar kasalliklarining tashxisida asosiy tekshirish usullari — surishtirish, ko'zdan kechirish, perkussiya, palpatsiya, auskultatsiya, rentgenologik, elektrokardiografik, ballistikardio- grafik, fonokardiografik, qon va siydik tahlillari hamda boshqa qo'shimcha tekshirish usullari yordamida aniqlanadi.

Bemorlarning shikoyatlari. Yurak-qon tomirlar kasalliklaridagi asosiy shikoyatlar jumlasiga yurak sohasida va to'sh orqasida og'riq sezish, hansirash, yurak o'ynashi, yurak ishining to'xtab-to'xtab qolishi, yo'talish, qon tuflash, badanga shish kelishi kiradi.



Og‘riq sezgisi bosh miya po‘stlog‘ida shakllanib, keyin periferiyada aks etadi. Og‘riq lo‘qillovchi, sanchuvchi, kesuvchi, lovullatuvchi, simillovchi, timdalovchi, gohida esa kuchli xurujsimon bo‘ladi. Yurak sohasidagi og‘riqlar bir necha sekunddan bir necha soatgacha, hatto kunlab davom etadi. Og‘riqlar to‘xtab- to‘xtab, gohida esa doimiy bo‘ladi. Yurak sohasidagi og‘riq ko‘krak qafasining chap tomonida yoki to‘sheets orqasida bo‘ladi. Og‘riq birdan yoki asta-sekin boshlanadi. Og‘riq bir lahzada o‘tib ketishi ham mumkin. Og‘riq ko‘pincha yurak sohasidan tashqari chap qo‘lga, chap yelkaga, bo‘yin sohasiga, chap kurak ostiga, ba’zan o‘ng qo‘lga ham beradi. Miokard infarkti kasalligining qorin turida esa (abdominal turida) me’daosti sohasi, qorin atroflarida og‘riq paydo bo‘ladi. Yurak sohasida og‘riq ko‘pincha yurak hamda boshqa organlar kasallanganda ham uchraydi.

To‘sheets orqasida siqib boshlanadigan og‘riq jismoniy zo‘riqqanda yoki tinch holatda ham kuzatiladi. Yurak sohasidagi og‘riq ko‘pincha nevrozlarda yurak nerv apparatining funksional buzilishlari, ichki sekretsiya bezlari faoliyatining o‘zgarishi, turli intoksiatsiyalarda kuzatiladi.

Hansirash qon aylanishi yetishmovchiligidagi ko‘p uchraydigan va asosiy hisoblanadigan shikoyatdir. Hansirash kichik qon aylanishi doirasidagi dimlanish hodisalari natijasida qonda karbonat angidrid gazining ortiqcha to‘planib qolishi va kislород miqdorining kamayib ketishidan kelib chiqadi.

Qon aylanishining yetishmovchiligi endigina boshlanib kela- yotgan davrda bemor faqat jismoniy zo‘riqish vaqtida hansirashni sezadi. Yurak yetishmovchiligi zo‘rayib borsa, hansirash doimiy bo‘lib qoladi. Chap qorincha muskullarining o‘tkir zaifligi boshlan- ganda esa nafas qisish xurujlari paydo bo‘ladi.

Bugungi kunda noqulay epidemiologik vaziyat butun dunyoda, shuningdek MDX mamlakatlarida o‘pka-bronx kasalliklari bilan kasallanish holatini barqaror ortib borishi bilan tavsiflanadi. Yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarning patologiyalari eng keng tarqalgan kasalliklardir. Surunkali yurak yetishmovchiligi, O’SOK yuqumli bo‘lmagan va keng tarqalgan kasalliklar guruxiga kiradi (Chazova I.E., Chuchalin A.G., Zikov K.A. 2013). Qirq yoshgacha bo‘lgan guruhdagi o‘lim sabablari orasida u arterial gipertenziya va surunkali koronar yetishmovchilikdan keyin uchinchi o‘rinda turadi. O’SOK arterial gipertenziya, YuIK va SYuYe shakllanishining bevosita ishtirokchisidir. Ushbu patologik jarayon bevosita organlarga yoki qon tomirlarining bilvosita shikastlanishi, endotelial disfunktsiya va arteriyalar elastikligining kamayishi orqali ta’sir qiluvchi patogenetik mexanizmlar majmuiga asoslangan (Karoli N.A., Borodkin A.V., Rebrov A.P. 2019). Adabiyotlarda O’SOK va yurak yetishmovchiligi muammosiga bag‘ishlangan etarli



miqdordagi ilmiy ishlar mavjud. Shu bilan birga, kasallik patogenezini har tomonlama o‘rganish va terapiyaning yangi samarali yondashuvlarini ishlab chiqishga bag‘ishlangan yetarli ma’lumot yo‘q, bu esa ushbu toifadagi bemorlarni boshqarish bo‘yicha chuqur izlanishlarni talab qiladi (Alyavi, A.L., Raximova, D.A., Tillaeva, Sh.Sh.). Ushbu holat gipoksemita, semizlik, diabet, chekish, kabi omillar darajasiga bog‘liqdir. Shuningdek, O‘SOK bilan kasallangan bemorlarda klinik, biokimiyoviy, immunologik va funktsional o‘zgarishlarni o‘z vaqtida tashhislash va patogenetik jihatdan asoslash va davolash muammosi qator olimlar tomonidan o‘rganilganligiga qaramasdan dolzarbligicha qolmoqda. Ushbu muammolarni hal qilish, sog‘liqni saqlashning asosiy vazifalaridan biri bo‘lgan O‘SOK bo‘lgan bemorlarda davolash samaradorligini oshirishga va nogironlikning oldini olishga yordam beradi. Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib, O‘SOK da SYuYe yuzaga kelishining oldini olish, tashhislash va davolash tamoyillarini takomillashtirish zamonaviy tibbiyotning eng muhim muammosi hisoblanadi. Nafas qisishi. Kasal yurak har bir qisqarganida tomirlar siste- masiga normal yurakka qaraganda kamroq qon chiqaradi, shuning uchun yurak organ va to‘qimalarni yetarli miqdorda qon bilan ta’minalash uchun tezroq qisqara boshlaydi.

Yurak yetishmovchiligidagi nafas tezlashadi va bemor nafas qisishini sezadi. Avvaliga nafas faqat jismoniy ishdan so‘ng qisadi, yurak yetishmovchiligi kuchayib borishi bilan u tinch holatda ham paydo bo‘ladi. Qoni o‘pkasida turib qolgan yurak yetishmovchiligi bilan og‘riyotgan bemorlarning nafasi kuchli qisadi.

Nafas qisishi vaqtida bemorlarga havo yetishmaydi va nafas olishi qiyinlashadi. Yurak yetishmovchiligi sababli yuz bergan ro‘y-rost nafas qisishida bemorning qaddini baland qilib yotqizish uning ahvolini yengillashtiradi, holbuki, odam gorizontal vaziyatda yotganida aylanib yurgan qon miqdori ko‘payib, nafas muskulaturasi va yurakning ishi qiyinlashadi.

Shishlar yurak yetishmovchiliginining asosiy alomatlaridan hisoblanadi. Vena va kapillarlarda bosimning ko‘tarilishi, ularda qon oqimining sekinlashishi va kapillarlar o‘tkazuvchanligining oshishi, suyuqlikning zo‘r berib qondan to‘qimalarga o‘tishiga sabab bo‘ladi. Buyraklarda natriy va suv tutilib qolishi, shuningdek, buyraklar va jigar funksiyasining buzilishi oqibatida qonda oqsil miqdorining kamayishi shishlar paydo bo‘lishiga imkon beradi.

### Foydalanimanligi adabiyotlar:

1. Abdullaev, R. B. "Clinico-immunologic effect of immunomodulin and bactim in duodenal ulcer under environmental pollution conditions."



Eksperimental'naia i Klinicheskaiia Gastroenterologii= Experimental & Clinical Gastroenterology 5 (2002): 42-4.

2. Abdullaev, R. B., and L. I. Makhmudova. "Micro elemental imbalance in irritable bowel syndrome and its correction." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11.5 (2021): 655-662.

3. Abdullayev, R. B., and L. I. Makhmudova. "Features of chemical elements in various forms of irritable bowel syndrome." Annals of the Romanian Society for Cell Biology (2021): 2993-3000.

4. Rubenovna, Agababyan Irina, et al. "Analysis of the effect of food stereotypes on disease in liver circuit disease." Asian journal of pharmaceutical and biological research 11.2 (2022).

5. Rubenovna, Agababyan Irina, et al. "Diagnostic value of il-8 and il-12 in various forms of interstitial lung disease." Asian journal of pharmaceutical and biological research 11.2 (2022).



## BUYRAK KASALLIKLARIDA ZAMONAVIY TEKSHIRISH USULLARI

*Madinabonu Ziyoviddinova Bobirovna*

*Buxoro viloyati G'ijduvon tumani*

*Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada buyrak-tosh kasalligi va uning kelib chiqish sabablari yoritilgan. Shuningdek, buyrak-tosh kasalligining zamonaviy tibbiyotda uretroskopiya, ukstrakorporeal zarba to'lqini litotripsiysi (ESWL), perkutan nefrolitotripsiya va xalq tabobatida Astosh, Ayritosh, Oltin vodiy, Shifoi bosim, Antivir biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalaridan foydalanish va davolash usullari haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** nefrit, pielonefrit, buyrak yetishmovchiligi, buyrak-tosh kasalligi, xalq tabobati, shaftoli danagi, petrushka damlamasi, qora no'xat.

**Абстрактный.** В этой статье описывается мочекаменная болезнь и ее причины. Также приведены сведения о применении и методах лечения уретероскопии, экстракорпоральной ударно-волновой литотрипсии (ЭУВЛ), чрескожной нефролитотрипсии, а также биологически активных пищевых добавок Астош, Айритош, Алтин Вади, Шифои дорис, Антивир в народной медицине при мочекаменной болезни в современной медицине. предоставленная информация.

**Ключевые слова:** нефрит, пиелонефрит, почечная недостаточность, почечно-каменная болезнь, народная медицина, стебель персика, настойка петрушки, черный горошек.

**Abstract.** This article describes urolithiasis and its causes. Information is also provided on the use and treatment methods of ureteroscopy, extracorporeal shock wave lithotripsy (ESWL), percutaneous nephrolithotripsy, as well as biologically active food additives Astosh, Airitosh, Altin Vadi, Shifoi Doris, Antivir in folk medicine for urolithiasis in modern medicine. Information provided.

**Key words:** nephritis, pyelonephritis, kidney failure, kidney stone disease, traditional medicine, peach stem, parsley tincture, black peas.

Buyraklar tanada juda muhim vazifani bajaradi. Bir daqiqa ichida ulardan bir litr qon o'tadi, doimiy ravishda toksinlar va zararli moddalardan tozalanadi. Biologik faol, xususan, renin – qon bosimini tartibga soluvchi, eritropoetin – eritrotsitlarning hosil bo'lish tezligini tartibga soluvchi moddalar ishlab chiqaradi. Suv muvozanatini



va qondagi natriy, kaliy, fosfor kabi minerallar konsentratsiyasini nazorat qilishga yordam beradi. Buyrak juft a'zo bo'lib, qorin bo'shlig'ining orqa devorida umurtqa pog'onasining ikki yonida joylashadi. Uning shakli loviyasimon, botiq yuzasi buyrakning darvozasi hisoblanadi. Buyrak arteriyalari kirib, buyrak venalari, siydik nayi va limfa tomirlari chiqadi. Bu yerda siydik chiqaruv yo'llari – buyrak kosachalari, jomlari va siydik chiqaruv naylari joylashadi. Buyrak biriktiruvchi to'qimadan iborat kapsula bilan qoplangan. Buyraklar kasallanganda organizmning zaharlanish jarayoni boshlanadi. Organizmni toksinlar va zahardan tozalashga ichaklar, teri, o'pka va jigar yordam bera boshlaydi, lekin bu a'zolar bunga moslashmagani tufayli o'zi ham kasallanadi.

Buyrak kasalligining dastlabki belgilari:

- *peshob miqdorining ko'payishi yoki kamayishi, rangi to'q jigarrang yoki rangsiz bo'lishi;*
- *shish paydo bo'lishi, ko'pincha qo'l, oyoq, to'piq, yuz va ko'z ostida terining sarg'ayishi;*
- *muntazam charchoq va zaiflik;*
- *bel va qorinning pastki qismida og'riqlar;*
- *terida tez-tez toshmalar toshishi, yallig'lanish, qichishish;*
- *ko'ngil aynishi, ishtahaning bo'g'ilishi;*
- *kamqonlik.*

Buyrak kasalliklari turli xil bo'lib, uning alomatlari ham turlicha: - tanadagi shish, bel va boshda og'riq paydo bo'lishi, nafas qisilib, yurak urishi ko'tarilishi, qon bosimi oshishi — nefrit kasalligiga dalolat; - yuqori tana harorati, terlash, mushaklarda og'riq, ko'ngil aynishi va qayt qilish, tez-tez hojatga chiqish va bunda og'riq his qilish, siydik rangining xiralashishi — pielonefrit alomatlari; - buyrak etishmovchiligi, esa siydik ajralmasligi, bosh og'riq, ko'ngil aynishi, asab tizimi buzilishi, ko'rish qobiliyatining pasayishi, ich ketishi va qayt qilish bilan namoyon bo'ladi. Bunday holatlarda zudlik bilan shifokorga murojaat qiling. - siydik rangining o'zgarishi, unda o'ziga xos hid paydo bo'lishi va o'tkir og'riq esa buyrakdagi toshlardan dalolat beradi. Bundan tashqari, buyrak-tosh kasalligi inson organizmida moddalar almashinuvining buzilishi tufayli kelib chiqadi. Shuningdek, yetarli miqdorda suyuqlik ichmaslik sababli organizmda suv almashinuvining buzilishi, peshob yo'llarida paydo bo'ladigan infeksiyalar, peshob hajmi kamayib, tosh paydo qiluvchi moddalar miqdori organizmda ko'payganida, ba'zi dori



preparatlaridan foydalanganda buyraklarda toshlar paydo bo'ladi [3]. Ko'pchilik golf to'pi kattaligiga etib boradigan katta buyrak toshlari haqida dahshatli voqealarni eshitgan, ammo aksariyat hollarda ularning diametri bir necha millimetrdan kam, shuning uchun jarrohlik amaliyotiga talab etilmaydi. Lekin, hatto kichik buyrak toshlari ham ikki kun davomida juda og'riq berishi mumkin. Bu esa buyrakdagi toshning kattaligini aniqlash va uni davolashga undaydi. Buyraktosh kasalligi qorin, bel va tos sohasida keskin og'riqlar berishi, ko'ngil aynishi, peshob rangining to'qlashishi, siydik ajralishining qiyinlashishi buyrakda tosh paydo bo'lganligini bildiradi. Buyrak-tosh kasaligining taxminan 85% i buyrak toshlari siyish paytida o'tib ketadigan darajada kichikdir. O'tish odatda birinchi alomatlardan keyin 72 soat ichida sodir bo'ladi. Og'riq qoldiruvchi vositalarni qabul qilish va kuniga kamida 6-8 stakan suv ichish, qo'shimcha ravishda yotishdan oldin va tunda ikki stakan suv ichish, odatda toshning osonroq o'tishiga yordam beradi. Dori-darmon vositalari bilan davolashda tosh organizmida harakatlanayotganda sizga og'riq qoldiruvchi vositalar kerak bo'lishi mumkin. U o'tib ketgandan so'ng, toshlar yana paydo bo'lishining oldini olish uchun yana dori-darmon vositalari kerak bo'lishi va bunday dorilar o'z ichiga giyohvand moddalarni olishi mumkin:

- Nosteroid yallig'lanishga qarshi dorilar (NSAID);
- Qattiq og'riqni nazorat qilish uchun giyohvand moddalar;
- Allopurinol, giperurikemiyanı nazorat qilish uchun;
- Gidroklorotiyazid, I turdagı kaltsiy toshlari uchun;
- Sellyuloza natriy fosfat, I toifa kalsiy toshlari uchun va ichakning so'rilihini kamaytirish uchun;
- Ortofosfatlar, III turdagı kalsiy toshlari uchun.

Shuningdek, dori-darmonlarga javob ta'sir etmaydigan kuchli og'riqli bemorlarga, og'ir qon ketishi va doimiy isitma, ko'ngil aynishi yoki sezilarli siydik obstruktsiyasi bo'lgan bemorlarga jarrohlik amaliyotlari tavsiya etiladi. Operatsiyadan keyin tibbiy yordam ko'rsatilmasa, toshlar 5 yil ichida bemorlarning 50 foizida qaytalanish holatlari kuzatiladi. Bunday davolash usullariga quyidagilarni kiritish mumkin: -Uretroskopiya. Siydik chiqarish kanalining pastki uchdan bir qismidagi toshlarni aniqlashning diagnostik usuli. -Ekstrakorporeal zarba to'lqini litotripsiysi (ESWL). Shok to'lqinlari yordamida 1 sm gacha bo'lgan toshlarni parchalash uchun ishlatiladigan ambulatoriya usuli. -Perkutan nefrolitotripsiya. Katta yoki zich buyrak toshlarini olib tashlash uchun jarrohlik muolajasi.



**Foydalaniłgan adabiyotlar:**

1. B. Aminov, T. Tilavov, O. Mavlonov. Odam va uning salomatligi. Toshkent. 2010.
2. Sh.M. Qirg'izov, A.S. G'ofurov Buyrak-tosh kasalligida magnitlangan suvdan foydalanish. International scientific-online conference on Innovation in the modern education system Part 2. 2021. 175-177 b.
3. I.R. Asqarov Sirli tabobat. Toshkent. 2021. 93-99 b.
4. Al-Tawheed AR, Al-Awadi KA, Kehinde EO, Abdul-Halim H, Hanafi AM, Ali Y. Treatment of calculi in kidneys with congenital anomalies: an assessment of the efficacy of lithotripsy. Urol Res. 2006;34(5):291-298.
5. Ferraro PM, Taylor EN, Eisner BH, et al. History of kidney stones and the risk of coronary heart disease. JAMA. 2013;310(4):408-415.



## ZAMONAVIY HARBIY MOJAROLARDA MUHANDISLIK BO'LINMALARINI QO'LLASH TAJRIBALARI

ОПЫТ ПРИМЕНЕНИЯ ИНЖЕНЕРНЫХ ПОДРАЗДЕЛЕНИЙ  
В СОВРЕМЕННЫХ ВОЕННЫХ КОНФЛИКТАХ

FEATURES OF APPLICATION AND SPECIFICITY OF EQUIPMENT  
OF FORTIFICATIONS IN MODERN LOCAL COMBAT ACTIONS

*<sup>1</sup>Xalilov Sh.X., <sup>2</sup>To'laboyev Sh.G‘.*

*<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti katta o'qituvchisi*

*<sup>2</sup>O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura tinglovchisi*

**Annotatsiya.** Maqolada zamonaviy harbiy mojarolarda muhandislik bo'linmalarini qo'llashning ahamiyati, turli mintaqalarda olib borilgan qurolli to'qnashuvlar va jangovar harakatlar mobaynida sapyor bo'linmalarining harakatlanish taktikalarining o'ziga xos jixatlari tahlil qilingan. Harbiy xizmatchilarning jangovar samaradorligini oshirish hamda xayotini saqlab qolishni ta'minlashda muhandislik ta'minoti masalalrini takomillashtirish bo'yicha takliflar berilgan. Maqolada shuningdek, portlovchi qurilmalarni zararsizlantirish texnik vositalarning imkoniyatlari tahliliy ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** muhandislik, muhandislik bo'linmalar, sapyorlar, portlovchi qurilma.

**Аннотация.** В статье рассмотрено значение фортификационных сооружений, а также проанализирована специфика оснащения фортификационных сооружений в ходе вооруженных конфликтов и боевых действий, происходивших в разных регионах. Приведены предложения по совершенствованию местности с точки зрения инженерного оснащения для повышения боеспособности и выживания военнослужащих.

**Ключевое слово:** фортификационные сооружения, личный состав, защита, инженерное оборудование, боевая эффективность, живучесть, современные сооружения.

**Annotation.** The article considers the importance of fortifications, and also analyzes the specifics of equipping fortifications during armed conflicts and hostilities that took place in different regions. Proposals are given for improving the terrain in terms of engineering equipment to increase the combat capability and survival of military personnel.



**Key words:** fortifications, personnel, protection, engineering equipment, combat effectiveness, survivability, modern facilities.

Insoniyat xayotida bo‘layotgan o‘zgarishlar, texnika va texnologiyalarning jadal suratlar bilan rivojlanishi ijtimoiy xayotning barcha sohasiga o‘z tasirini o‘tkazmoqda. Xususan, ilg‘or xorijiy mamlakatlarning armiyalari tomonidan so‘ngi vaqtarda qo‘llanilayotgan yangi namunadagi jangovar texnika va qurol-aslahalarning janglardagi samarasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, jangovar vazifalarni bajarishda inson omilining kamaytirish maqsadida yaratilgan robotlashgan texnikalar, uchuvchisiz uchish apparatlari vahokazolar fikrimiz isbotidir. Shunday ekan zamonaviy sharoitlarda jangovar harakatlarni olib borish tajribalarini tahlil etish va ilg‘or xorijiy tajribalarni mamlakatimiz Qurolli Kuchlari faoliyatiga tadbiq muhim ahamiyatga egadir.

Turli davrlardagi janglarda muvaffaqiyatga erishishda qarshi turgan tomonlarga ustunlik beruvchi omillar bo‘lgan, misol uchun o‘rta asrlarda Xind qo‘sishnlariga fillar, Turk yanicharlari va boshqa sarkardalarning xos bo‘linmalari hamda shunga o‘xshash boshqa vositalar. Zamonaviy jangovar harakatlar teatrda esa armiyalar uchun janglarda g‘alabaning kaliti ko‘p hollarda tomonlarning zamonaviy qurol-asлаha va harbiy texnikalar bilan ta’minlanganligiga hamda armiya kadrlarining malakasiga bog‘liq bo‘lmoqda.

2016 yilning 29-30 mart kunlari Suriya Arab Respublikasiga Rossiya Federatsiyasi Qurolli kuchlari xalqaro minasizlantirish markazining, tarkibida bir necha sapyor guruhlari, “Uran-6” robotlashtirilgan minasizlantirish majmuasiga ega bo‘lgan bo‘linmalari hamda portlovchi qurilmalarni qidirib topishga o‘rgatilgan xizmat itlaridan iborat yig‘ma otryadi yuborilgan. Palmir shahriga yetib kelgan yig‘ma otryadning zimmasiga ISHID jangarilaridan ozod qilingan tarixiy shaharni portlovchi vositalar va qurilmalardan tozalash bo‘yicha murakkab vazifasi yuklatildi.

Vazifalarni bajarish mobaynida sapyor, ochiq joylarda olti-yetti kishilik kichik guruh tarkibida, shahar ichkarisida esa ikki kishilik juftlik tarzida vazifani bajardilar.

Minalashtirilgan xududlarda sapyorlarning harakat yo‘nalishida portovchi qurilmalarni va portlash xavfi bo‘lgan predmetlarni aniqlash jarayonida asosiy elementlardan biri qo‘lini yuqoriga ko‘tarishi barobarida “Mina” deb baland ovozda xabardor etishi va ushbu harakatlar orqali guruhn ni ogohlantirishi hamda portlovchi qurilmani bayroqcha bilan belgilashi muhim ahamiyat kasb etadi.



Tarihiy obidalarning zarar ko‘rishini oldini olish maqsadida sapyorlarga portlovchi qurilmalarni aniqlangan joyida emas, balki maxsus mo‘ljallangan joyga olib borib, shundan so‘ng yo‘q qilinish yuzasidan murakkab ko‘rsatma berilgan edi.

Portlovchi qurilmalar va portlash xavfi bo‘lgan predmetlarni joyidan qo‘zg‘atish va uni transportirovka qilish mutaxassis sapyorlar uchun eng xavfli jarayon hisoblanadi va bunday topshiriqni bajarishda ular barcha xavf-xatarni o‘z zimmasiga oladilar. Portlovchi qurilmalarni jangovar kallaklaridan va harakatga keltiruvchi qismidan ushslash qat’yan man etiladi, shuning uchun ularni o‘rta qismidan olib maxsus jixozlangan transport vositalariga yuklanadi va belgilangan joyga olib boriladi.

Vazifalarni bajarishda sapyorlar jangarilar tomonidan turli joylarga o‘rnatilgan (yo‘llar, ko‘priklar, suv tarmoqlari, binolar va boshqalar) ko‘plab qo‘lbola portlatish qurilmalariga duch keldilar. Jangarilar tomonidan o‘rnatilgan qo‘lbola portlatish qurilmalari sapyorlarga o‘ziga hos qiyinchiliklar tug‘dirdi. Ushbu qo‘lbola portlatish qurilmalari asosan portlovchi moddalar bilan to‘ldirilgan suv quvurlarining qismlari hamda elektrodetonatorlar o‘rnatilgan kumulyativ va tankga qarshi minalar ko‘rinishida o‘rnatilgan. Jangarilar ko‘p hollarda radioboshqariluvchi fugaslardan faol foydalanishgan, shuning uchun Rossiya sapyorlari doimiy ravishda avtomobilga o‘rnatilgan “Pelena” rusumli radioto‘lqinlarni tarqalishiga qarshi 1-rasmdagi uskunadan keng foydalanishgan .



1-rasm. Avtomobilga o‘rnatilgan “Pelena-7M4” blokiratori

Jangarilar tomonidan qo‘llanilgan yana bir o‘ziga hos qo‘lbola portlovchi qurilma sifatida “Girlyanda” nomli bosganda harakatga keladigan fugasni keltirsak bo‘ladi, ushbu qurilma kichik metal plastinalardan iborat bo‘lib, bosganda harakatga keltiruvchu vosita bilan jihozlangan. Mazkur portlovchi qurilmani turli maishiy jismlarga, bolalar o‘ynchoqlariga o‘rnatish, mebellar ostiga yashirish xolatlari ham



sapyorlardan alohida ehtiyotkorlik va diqqatli bo‘lishni talab etadi. Jangarilar tomonidan qo‘llanilgan portlovchi qurilmalar asosan plastik va metal bo‘limgan boshqa materiallardan tayyorlanganligi ham portlovchi qurilmalarni aniqlashda mutaxassis sapyorlarga mina va portlovchi qurilmalarni aniqlash bo‘yicha vazifalarni bajarishda murakabliklar keltirib chiqaradi.

Palmirda sapyorlarning xayoti va xavfsizligini ta’minalash maqsadida Rossiya armiyasi bir qator robotlashgan texnikalar va himoya vositalaridan keng foydalangan. Misol uchun oskolkali va fugasli minalarning portlashidan hamda o‘qotar qurollardan shikastllanishlarini kamaytirish uchun sapyorlarni OVR-2 turidagi sapyorlar umumqo‘sishim himoya to‘plami bilan vazifa bajardilar<sup>[1]</sup>.

Yuqorida keltirilgan harakatlar va vositalarning qo‘llanilishi qurolli kuchlar tarkibidagi mutaxassis sapyorlarning oldiga ulkan vazifalarni yuklaydi. Xususan, Palmirdagi harakatlarda jangarilar tomonidan qo‘lbola portlatish qurilmalari keng qo‘llanilganlishi har bir mutaxassisdan faqatgina shtatda nazarda tutilgan yoki horijiy davlatlar armiyalarida mavjud bo‘lgan portlovchi qurilmalarning taktik tavsiflari, ishslash prinsiplarini va zararsizlantirish tartibinigina o‘rganish bilan cheklanib qolmasdan, balki terrorchilar tomonidan turli davlatlarda va davrlarda amalga oshirilgan terraktlarda qo‘llanilgan qo‘lbola portlatish qurilmalarini kuzatib borish, ularni o‘rganish va tahlil etishni talab etadi. Harbiy xizmatchilar nafaqat o‘zlarining balki xizmat itlarining ham tayyorgarlik darajasini oshirishlari talab etiladi, bu esa ularga kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan o‘quv jangovar va jangovar harakatlarda muvaffaqiyatga erishishda zamin yaratadi.

Muhandislik qo‘shinlari qo‘mondoni general-leytenant Yuriy Staviskiy 2018 yilda RIA novosti muhbirlariga bergan intervusida 90 yillarda Kavkazda olib borilgan “Chechen kompaniyasi” da yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar va ortirilgan tajribalardan kelib chiqib Rossiya Qurolli Kuchlariga qarashli muhandislik qo‘shinlari tarkibida muhandis ishg‘ol vzvodlari tuzilganligini aytib o‘tgan. Ushbu bo‘linmalarning zimmasiga shaharlashgan joylarda asosiy kuchlarning to‘sinqiniksiz harakatlanishini ta’minalash kiradi. Umuman olganda muhandis ishg‘ol bo‘linmalari dushman mudofaasidagi bo‘shliqni ochadigan nayza uchi bo‘lib, o‘zidan keyingi qo‘shinlari hujumga kirishiga zamin yaratadi. Bo‘linma harbiy xizmatchilarining muhandislik vazifalarni o‘zlashtirishdan tashqari jismonan yaxshi rivojlanganlik, o‘qotar qurollarni mohirona qo‘llay bilishi, binolarda janglar olib borish va qo‘l jangiga kirishish, dushman istehkomlarini ishg‘ol qilish va boshqa maxsus vazifalar yuklatilganligini aytib o‘tgan.<sup>[2]</sup>



Chechenistonda olib borilgan jangovar harakatlarda qatnashgan saper bataloni komandiri Yury Ostapov jangovar harakatlarda Checheniston qarshilik kuchlari tomonidan qo'llanilgan ayrim nostandard portlovchi vositalarni yoritib o'tgan. Batalon komandirining takidlashicha Chechenlar ichiga gaz to'ldirilgan 50 litrli balonlardan foydalanishgan, ushbu gaz balonli bitta portolovchi qurilma BTR texnikasini ag'darish kuchiga ega bo'lgan. Bazi xollarda shunday portlovchi qurilmanig 2 metr chuqurlikdagi tuproqqa ko'milishi sapyor tomonidan qo'llaniladigan oddiy minaizlagichlar va zararsizlantirish to'plamlari yordamida ularni aniqlash imkonini bermagan. Sapyor bunday portlovchi qurilmalarni aniqlash uchun Germaniyaning 5 metr chuqurlikdagi portlovchi qurilmalarni aniqlash qobiliyatiga ega bo'lgan bombaizlagichlardan foydalanishgan<sup>[3]</sup>.

Rossiya Ukraina qo'shinlari o'rtasida olib borilayotgan jangovar harakatlarda, Rossiya Federatsiyasi qurolli kuchlari muhandislik qo'shinlari o'z bo'linmalari tomonidan egallangan xududlarni portlovchi qurilmalardan tozalash bo'yicha vazifani bajarishda sapyorlar xuddi ishg'ol bo'linmalaridek harakatlanib binodan binoga o'tishadi. Binoni tekshirishga kirgan mutaxassislar guruhning boshqa a'zolari tomonidan panalanadi, aniqlangan portlovchi qurilmalar qo'zg'atilmasdan joyida portlatib yo'q qilinadi.

Bino va inshootlar ichida mutaxassislar juda ko'plab tayyorlab ketilgan "Syurpriz" larga duch kelgan. Qarshi turgan kuchlar aholi punktidan chekinar ekan xujum qilayotgan tomonga maksimal qiyinchilik tug'dirishga harakat qilgan. Bunda ular asosan bino va inshootlarning kirish eshlari, oynalar va yerto'lalarga kirishlarni minalashtirishgan.

Sapyorlar vazifa bajarar ekan, ular tomonidan "**Bir mina - bir sapyor**" tamoyili qabul qilingan. Ya'ni, aniqlangan portlovchi qurilma bilan faqat bir sapyor qoladi va uni xavfsiz joyga olib chiqadi, bu vaqtida guruhning qolgan a'zolari portlash xavfidan pana joyda atrofni kuzatgan xolda turadi. Shundan so'ng, portlovchi qurilma zararsizantiriladi yoki portlatib yo'q qilinadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish o'rni bo'ladi:

vazifalarni bajarish mobaynida komandirlar tomonidan muhandis-saper bo'linmalarini to'g'ri taqsimlash va minalashtirilgan xududlarda sapyorlarning harakat yo'nalishida portovchi qurilmalarni va portlash xavfi bo'lgan predmetlarni aniqlaganlik bo'yicha o'z vaqtida qolgan bo'linmalarni ogohlantirish (belgilash) muhimligi;

kuzatuv natijalari ko'ra turli janglar va harbiy harakatlar davomida davlatlarning muntazam va nomuntazam armiyalari, terrorchi tashkilotlarning



jangari guruhlari tomonidan turli ko‘rinishdagi qo‘lbola portlatish qurilmalari keng qo‘llanilganligi muhandislik bo‘linmalarining har bir mutaxassisdan faqatgina shtatda nazarda tutilgan yoki horijiy davlatlar armiyalarida mavjud bo‘lgan portlovchi qurilmalarning taktik tavsiflari, ishlash prinsiplarini va zararsizlantirish tartibinigina o‘rganish bilan cheklanib qolmasdan, balki turli davlatlarda va davrlarda amalga oshirilgan terraktlarda va harbiy harakatlarda qo‘llanilgan qo‘lbola portlatish qurilmalarining qo‘llanish taktikasi, ularning xususiyatlarini hamda ishlash prinsiplarini o‘rganishni va tahlil etishni talab etadi.

Sapyorlar tomonidan tinchlik va urush davrida o‘quv va jangovar vaziflarni bajarish davomida “**Bir mina - bir sapyor**” tamoyiliga amal qilini sapyorning xayoti va xavfsizligi kafolati bo‘ladi.

### QO‘LLANILGAN ADABIYOTLAR

1. Тактика действий, инженерное и техническое обеспечение в локальных войнах и вооруженных конфликтах. 70-я Республиканская научно-техническая конференция профессорско-преподавательского состава, адъюнктов и аспирантов военно-технического факультета в Белорусском национальном техническом университете (в рамках 15-й международной научно-технической конференции «наука - образованию, производству, экономике») сборник научных статей г. Минск, 26 мая 2017 года. Грушевский Д.П. Учреждение образования «Гродненский государственный университет имени Янки Купалы».

#### Internet ma’lumotlari

- 2.[https://www.1tv.ru/news/2000-07-23/298446\\_v\\_chechenskoy\\_voyne\\_na\\_pervyy\\_plan\\_seychas\\_vyhodyat\\_sapery](https://www.1tv.ru/news/2000-07-23/298446_v_chechenskoy_voyne_na_pervyy_plan_seychas_vyhodyat_sapery)
3. <https://ria.ru/20180625/1523232961.html>.
- 4.<https://ren.tv/news/v-rossii/1068058-inzhenernye-voiska-otmechajut-322-goda-so-dnia-obrazovaniia>.



## PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF MICE TOURISM IN OUR COUNTRY

Ergashev Doniyor Ixtiyorovich

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

“Turizm” yo‘nalishi talabasi

**Abstract:** Mice tourism is a well-known part of the tourism industry, it is one of the important jewels of the tourism industry and its benefits to the country's economy are detailed in the article. About what MICE tourism is, how the MICE tourism industry has developed around the world, and why this type of tourism is so important. MICE stands for Meetings, Incentives, Conferences and Exhibitions and it represents a profitable part of the tourism mix worldwide. MICE can also be called business tourism or business events.

**Keywords:** Event, mass events, tourism, conference, seminar, festival, symposium. MICE,

## YURTIMIZDA MICE TURIZMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Ergashev Doniyor Ixtiyorovich

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

“Turizm” yo‘nalishi talabasi

**Annotatsiya:** Mice turizmi turizm sanoatining taniqli qismidir, Turizm sanoatining muhim taqmoqlaridan biri ekanligi va mamlakat iqtisodiyotiga foydasi haqida maqolada batafsil bayon qilingan. MICE turizmi nima ekanligini, MICE turizm sanoati butun dunyo bo‘ylab qanday rivojlanganligini va nima uchun bu turdagи turizm juda muhimligi haqida. MICE yig‘ilishlar, rag‘batlantirishlar, konferentsiyalar va ko‘rgazmalarni anglatadi va u butun dunyo bo‘ylab sayyohlik aralashmasining foydali qismini ifodalaydi. MICEni biznes turizmi yoki biznes tadbirlari deb ham atash mumkin.

**Keywords:** Tadbir, ommaviy tadbirlar, turizm, konferensiya, seminar, festival, simpozium. MICE,

### Introduction:

Dunyodagi turizm daromadlarining qariyb 30 foizini tashkil etuvchi MICE turizmi mamlakatimizga endigina kirib kela boshladи. Odatda MICE turizmisifatida mashhur bo‘lgan MICE turizmi 50 ga yaqin turli-tuman qo‘llab- quvvatlovchi



sektorlarni oziqlantirishi va tashkil etilgan hududga oid qator sohalarni rivojlantirishi orqali mintaqaning ahamiyatini yuksaltirish uchun zarur hisoblangan muhim turizm turlaridandir.

MICE – bu “Meetings, Incentives, conferences, exhibitions (Uchrashuvlar, Rag‘batlantirishlar, Konferentsiyalar, Ko‘rgazmalar)” so‘zlarining bosh hariflari orqali shakllantirilgan qisqartma hisoblanadi. MICE turizmiasosan o‘zi faoliyat olib borayotgan sektorlarda foyda keltirish maqsadida qilingan sayohat va tashkiliy faoliyatlar iborat. MICEni ifodalovchi so‘zlarning mazmuniga qaraydigan bo‘lsak [5]:

Meetings – Uchrashuvlar: kompaniyalarning yirik darajadagi biznes uchrashuvlarini, seminarlarini, sohaga oid treninglar kabi faoliyatlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri diqqatga sazovor markazlarda yoki sektor uchun geografik ahamiyat kasb etuvchi mintaqada-hududda o‘tkazishni ustuvor hisoblashi yoki tashkil etishi MICE turizmining bir ko‘rinishi bo‘ladi.

Incentives – Rag‘batlantirishlar (imtiyozlar): Kompaniyalar tomonidan ishlaydigan xodimlarning motivatsiyalarini (rag‘batlarini) oshirish, unumдорликни eng yuqori darajaga chiqarish maqsadida tashviqot qilish, motivatsiya faoliyatlarini tashkil etishdir.

Conferences – Konferentsiyalar: Muayyan maqsadga xizmat qiluvchi birliklar va uyushmalar kabi tuzilmalarning yoki sektor vakillarining tashkil etgan konferentsiyalari MICE turizmining konferentsiyalar qismini tashkil qiladi.

Exhibitions – Ko‘rgazmalar: Yuqoridagilar bilan bir qatorda tashkil etilgan va yuzlab ishtirokchilarni mintaqaga jalb qilgan yarmarkalar faoliyatları MICE Turizmining eng muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi [1].

MICE turizmi asosiy faoliyatdan olinadigan daromad bilan bir qatorda turli sohalarda har xil manfaatlarni kelishiga ham xizmat qiladi. Masalan, shaharda o‘tkaziladigan konferentsiyalarda ishtirokchilar va ma’ruzachilar shahardagi boshqa turistik va diqqatga sazovor mahalliy markazlarga tashrif buyurish orqali sarfxarajatlar qiladi.

Dunyoda MICE turizmiga zarur sarmoya kiritayotgan mamlakatlar yoki muassasalar bu sektordan katta foyda ta’minlaydilar. MICE turizmibο‘yicha yetakchi davlatlar orasida birinchi o‘rinda AQSh turadi. AQShdan keyin Germaniya va Ispaniya bormoqda. Xususan, Turkiya 2013-yilda 221 kongress o‘tkazib, MICE turizmi bo‘yicha 18-o‘rinni egallagan bo‘lsa, ammo, bu ko‘rsatkich 2013-yildan keyin pasayish tendensiyasini qayd qilib, 2018-yilga kelganda bor-yog‘i 55 ta konferentsiya tashkil etilishi natijasida 52-o‘ringa tushib qolishiga sabab bo‘lgan [2].



Aynan ushbu mamlakatda MICE turizmiga eng ko‘p mezbonlik qilgan shaharlar, bu Istanbul, Izmir, Antaliya va Anqara bo‘lib, ularda yetarli infratuzilmalar, xususan, kongress o‘tkaziladigan zallar, ko‘rgazma va yarmarkalar tashkil etiladigan maydonlar mavjud. Bundan tashqari, Turkiyada MICE turizmi tadbirlari tashkil etish va o‘tkazish uchun qulay shart-sharoitlarga ega mehmonxonalar ko‘p sonli hisoblanadi. Kerakli sarmoya va tashkiliy shart- sharoitlarni yaratish orqali ham milliy, ham mintaqaviy darajada daromad olish imkoniyati ta’minlanadi. Zero, MICE turizmi mamlakat va mintaqaga, 50 ga yaqin sohaga daromad keltirishini hisobga oladigan bo‘lsak, bu sohaga yirik biznes darajasida ham, kichik biznes miqyosida ham ahamiyat berish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Methods:

2017-yilda global sayohlik sanoatida MICE turizmining ulushi 22,5 foizni yoki 1,23 trln. dollarni tashkil etdi. Butunjahon sayohlik va turizm kengashining (WTTC) ma’lumotiga ko‘ra, 2025-yilga borib, MICE turizmi bozorining umumiyligi xajmi 1,67 trln. dollarga etishi kutilmoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, aviakompaniya daromadlarining 50 foiziga yaqini, mehmonxona daromadlarining 60 foizi va avtomobil vositalarini ijara beruvchi kompaniyalarni daromadining 70 foizi turistlarning ushbu toifasiga xizmat ko‘rsatishdan olingan daromadlarga to‘g‘ri kelmoqda [3].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘srimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5611-sonli Farmoni ijrosini ta’minalash hamda respublikani MICE turizmi markaziga aylantirish, mahalliy va xalqaro darajadagi konferensiya, forum, kongress, ko‘rgazma, seminar va boshqa tadbirlar (MICE) o‘tkazilishi uchun zaruriy infratuzilmani rivojlantirish, mamlakatimizda turizm mavsumining davomiyligini ta’minalash, ko‘rsatilayotgan xizmatlar turlarini kengaytirish hamda sifatini yaxshilash maqsadida: “2019-2025-yillarda O‘zbekistonda konferensiya, forum, kongress, ko‘rgazma, seminar va anjumanlar (MICE) turizmini rivojlantirish bo‘yicha konsepsiya” ishlab chiqildi.

Turizmda marketing faoliyati sayohlik mahsulotini shakllantirish, tur narxini belgilash, sayohlik mahsulotini targ‘ib qilish usullari va sotishni rag‘batlantirishni o‘z ichiga oladi. Shubhasiz, tadbir turizmi doirasida bir voqeа yaratish yetarli emas. Buni amalga oshirish kerak. Ayni paytda, reklamachilarning alohida e’tibori event marketingi yoki tadbirlar marketingi deb ataladi. U kompaniyaning tovar xabardorligi uchun ko‘rashda kuchli vosita sifatida tavsiflanadi. Event marketing maxsus tadbirlar tashkil etish orqali mahsulot yoki xizmat qisqa muddatli reklama



vositasi sifatida paydo bo‘ladi: teatr taqdimotlari, qiziqarli tanlovlari, festivallar, taqdirlash marosimlari va hokazo. Buning samaradorligi isbotlanib, tadbirlar marketing tez orada dunyoning etakchi kompaniyalari ya’ni uzoq muddatli bozor strategiyasi ko‘tarildi. Hozirgi vaqtda tadbirlar marketingi iste’molchi o‘rtasida yaqin hissiy aloqani shakllantirishga qaratilgan marketing kommunikatsiyalari orqali ommalashtiriladi va brend darajaga erishiladi [4].

#### Results:

Ommaviy hodisalarning har bir asosiy tasnifini ko'rib chiqamiz, ularning xususiyatlari, maqsadlari va misollarini ta'kidlaymiz:

##### 1. Madaniy tadbirlar

Xususiyatlari : Madaniy meros, an'analar va san'atni nishonlash. Ular ko'pincha jonli, rang-barang va an'analarga boy.

Maqsadlar : Madaniy qadrlashni, tushunishni va xilma-xillikni rivojlantirish. Ular madaniy almashinuv va saqlash uchun platforma bo'lib xizmat qiladi.

Misollar : Italiyadagi Venetsiya karnavali, Shotlandiyadagi Edinburg xalqaro festivali va Venetsiya biennalesi kabi san'at ko'rgazmalari.

##### 2. Sport tadbirlari

Xususiyatlari : Raqobatbardosh, individual yoki jamoaviy sportchilarni o'z ichiga oladi. Ular mahalliy jamoa o'yinlaridan tortib xalqaro musobaqalargacha.

Maqsadlar : Jismoniy faoliytni, sport mahoratini va milliy g'ururni rag'batlantirish. Ular, shuningdek, turizm va mahalliy iqtisodiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Misollar : FIFA Jahon kubogi, Olimpiya o'yinlari, Boston marafoni va mahalliy maktab sport kunlari.

##### 3. Korporativ tadbirlar

Xususiyatlari : Professional va maqsadga yo'naltirilgan, bu tadbirlar kompaniyalar yoki professional uyushmalar tomonidan tashkil etiladi.

Maqsadlar : Mahsulotlarni ishlab chiqarish, bilim almashish, tarmoq va biznes aloqalarini rivojlantirish. Ular ko'pincha innovatsiyalar, sanoat tendentsiyalari va kasbiy rivojlanishga e'tibor berishadi.

Misollar : Las-Vegasdagi maishiy elektronika ko'rgazmasi (CES), Davosdagi Jahon iqtisodiy forumi va turli texnologik kompaniyalarning asosiy fikrlari.

##### 4. Tarbiyaviy tadbirlar

Xususiyatlari : Akademik va informatsion, bu tadbirlar bilimlarni tarqatish, tadqiqot va o'rganishga qaratilgan.



Maqsadlar : Akademik almashinuvni rivojlantirish, tadqiqot natijalarini rag'batlantirish, kasbiy rivojlanish va umrbod ta'limni qo'llab-quvvatlash.

Misollar : TED konferentsiyalari, akademik simpoziumlar va professional seminarlar va seminarlar.

#### 5. Siyosiy voqealar

Xususiyatlari : boshqaruv, siyosat va ijtimoiy masalalarga qaratilgan. Bu voqealar ko'pincha kuchli fikrlar va targ'ibot bilan ayblanadi.

Maqsadlar : jamoatchilik fikrini shakllantirish, siyosatni himoya qilish va demokratik jarayonlarda ishtirok etish.

Misollar : Siyosiy mitinglar, shahar hokimiyati yig'ilishlari va saylov kampaniyalari.

#### 6. Ijtimoiy hodisalar

Xususiyatlari : Shaxsiy va bayramona, bu voqealar muhim hayotiy voqealar va shaxsiy yutuqlarga qaratilgan.

Maqsadlar : marralarni nishonlash, ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish va xayriya ishlari orqali sabablarni qo'llab-quvvatlash.

Misollar : to'ylar, yubileylar, tug'ilgan kunlar va xayriya ballari.

Har bir tasnif jamiyat tuzilishiga o'ziga xos tarzda hissa qo'shadi, inson hayotining turli manfaatlari, ehtiyojlari va jihatlariga javob beradi. Ommaviy tadbirlar nafaqat bayram qilish, o'rganish va jalb qilish uchun platforma bo'libgina qolmay, balki iqtisodiy rivojlanish, madaniy almashinuv va jamiyat qurilishida muhim rol o'ynaydi.

Discussion: , MICE industriyasi faqat ish safari va tadbirlariga xizmat ko'rsatishdan iborat degan qat'iy qarash hozirgacha saqlanib qolmoqda. Shu sababli, ushbu sohaning segmenti hali qator davlatlar turizm qonunchiligidagi ajratilmagan va yozilmagan, bu esa ushbu turdag'i turizmni bosqichma-bosqich rivojlantirish va rag'batlantirish bo'yicha davlat dasturlarini yaratishga to'sqinlik qilmoqda.

MICE – bu biznes turizmi uchun juda katta xizmat turidir. Bugungi kunda ko'plab kompaniya va tashkilotlar MICE turizm xizmatlaridan foydalanmoqda va O'zbekistonda ham ushbu formatdagi tadbirlar va sayohatlar o'tkazish uchun barcha sharoitlar mavjud.

Jadvaldan ko'rinish turibdiki, O'zbekistonga tashrif buyurgan turistlarning asosiy salmog'i sayyohlik turizmiga to'g'ri kelsa, xizmat yuzasidan kelganlarning ulushi keyingi o'rinni egallagan. Qo'shni mamlakatlardan kelganlarning asosiy qismi qarindoshlarini yo'qlash maqsadida kelgan bo'lsada, ularning bu yerda tijorat



yoki sayyohliq xizmatlaridan ham foydalanishi o‘z-o‘zidan yuzaga kelishi mumkin. Ayniqsa

Markaziy Osiyo davlatlari turistlarining mamlakatdagi tibbiy xizmatlardan foydalanish ulushi ortib borayotganligi yanada quvonarli holatdir.

Conclusion: Xulosa o‘rnida aytish joizki, turizmni jadal rivojlantirishga jamoat tashkilotlarini keng jalb qilinishi sayyohlik yo‘nalishlarini ko‘paytirish va ommalashtirishga katta hissa qo‘shadi. Shunday ekan, bu yo‘nalishda respublika miqyosida targ‘ibot-tashviqot ishlarini yanada kuchaytirish, qo‘shimcha sarmoyalar jalb etish va investitsion salohiyatni kuchaytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratishda jamoat tashkilotlarini rolini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi [1]

### References:

1. C. J. Middleton V, “Marketing in Travel and Tourism,” T. %1 iz %2Third Edition,, 2001.
2. G. Huang, “TSUE.UZ,” “Development of MICE tourism in Uzbekistan”, t. выр. 1, pp. t. 2,, apr. 2022.
3. H. S. ., Swarbrooke J, “Oxford,” Business travel and tourism Butterworth-Heinemann, 2001.
4. O. Wyman, “GLOBAL GUIDELINES FOR SAFE & SEAMLESS TRAVELLER JOURNEY,” World travel and tourism counsil, pp. 10-12, 2023.
5. R. F, “Tourism: practice, problems, perspectives,” Reliable partnership in business execution , p. 10, 2010.



**ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРИНИНГ УЮШГАН  
ЖИНОЯТЧИЛИКНИ ОЛДИНИ ОЛИШ ҲАМДА УНГА ИМКОН  
БЕРГАН ШАРТ ШАРОИТЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШ ФАОЛИЯТИ**

**Нуриддинов Мухаммадохун**

*Ўзбекистон Республикаси Ички Ишлар Вазирлиги Академияси*

*3-ўқув курси курсанти*

**Аннотация:** Ушбу мақолада профилактика инспекторининг жиноий уюшмалар шаклланишининг олдини олиш фаолиятининг йўналишлари, жиноий уюшмаларнинг криминологик тавсифи ва унинг ижтимоий хавфлилиги, профилактика инспекторининг жиноий уюшмалар шаклланишининг олдини олиш фаолиятининг ташкилий, ҳуқуқий асослари, ҳамда жиноий уйишмалар шаклланишининг олдини олиш фаолиятини ташкил этишнинг бугунги ҳолати ва такомиллаштириш йўналишлари шунингдек профилактика инспекторининг жиноий уюшмалар шаклланишининг олдини олиш фаолиятини такомиллаштиришга доир таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

**Калит сўзлар:** профилактика инспекторининг асосий йўналишлари, уюшган жиноятчилик, ижтимоий хавфлилик, профилактик чора тадбирлар, жиноятчиликка қарши курашишда ташкилий масалалар,

